

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi

Andijon davlat universiteti
Filologiya fakulteti
Tilshunoslik kafedrası

Qo'lyozma huquqida
UDK 811.512.133

Zohidova Surayyo Zohidjon qizi

Sirojiddin Sayyid asarlari lingvopoetik tadqiqi
10.02.01. – o'zbek tili

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots.D.Nurmonova

ANDIJON - 2014

MUNDARIJA

Dissertatsiyaning umumiy tavsifi.....	3
Kirish. Badiiy asar tilini o'rganishning nazariy va amaliy masalalari.	
I BOB. Matn mazmunini tahlil etish muammolari.....	6
1.1. Matn tushunchasi va uning tilshunoslikda o'rganilishi.....	9
1.2. Badiiy matn va uni o'rganish usullari.....	23
Bob bo'yicha xulosalar.....	33
II BOB. Sirojiddin Sayyid asarlarining fonopoetik va leksik poetik xususiyatlari	
2.1. Sirojiddin Sayyid asarlarining fonopoetik xususiyatlari.....	36
2.2. Sirojiddin Sayyid asarlarining leksik poetik xususiyatlari.....	41
Bob bo'yicha xulosalar.....	57
III BOB. Sirojiddin Sayyid asarlarining sintaktik poetik xususiyatlari	
3.1. Sirojiddin Sayyid she'rlaridagi okkazonalizmlarning lingvopoetik xususiyatlari.....	58
3.2. Sirojiddin Sayyid she'rlaridagi ritorik so'roq gaplarning lingvopoetik xususiyatlari.....	65
3.3. Shoirning o'xshatishdan foydalanishi.....	68
3.4. Sifatlashlar badiiy tasvir vositasi sifatida.....	74
Bob bo'yicha xulosalar.....	78
Umumiy xulosalar.....	79
Adabiyotlar ro'yxati.....	81

DISSERTATSIYANING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov insoniyatning eng yuksak boyligi bo‘lgan ma’naviyatning ma’no – mazmuni, uning jamiyatdagi taraqqiyot o‘rni batafsil yoritilgan “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ma’naviyatni shakllantiruvchi omillardan biri ona tilimizga ehtirom va uning xalqaro maydondagi obro‘ e’tiborini va nufuzini ko‘tarish, yuksaltirish ekanligini alohida qayd etdilar. Muhtaram yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek: “...o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy- ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvallo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir”.¹

Prezidentimiz ushbu asarlarida millat ma’naviyatini yanada yuksaltirish uchun “biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur”²ligini ta’kidlab, bu borada mamlakatimiz filologlari bajarishi lozim bo‘lgan vazifalarni ham belgilab berdilar. Shu jumladan, ma’naviyatimizning , milliy boyligimizning ajralmas qismi bo‘lgan “o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish” maqsadini ko‘zlaydigan tadqiqotlar olib borish va amaliy ishlarni bajarish vazifasi qo‘yildi.

O‘zbek milliy ongi, tafakkuri, dunyoqarashi, tafakkuri, dunyoqarashi, adabiy tili, adabiyoti va madaniyatining shakllanishi va taraqqiy etishida badiiy adabiyotning o‘rni beqiyosdir. Chunki adabiy tilning rivoji uchun badiiy adabiyot tili eng boy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiy tilning badiiy mukammallikka, milliy xarakterlar yaratishdagi o‘ziga xoslikka erishishida so‘z san’atkorlarining mashaqqatli xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim. Shu bois ularning asarlari tili va uslubini lingvistik jihatdan o‘rganish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.

Ana shuni xisobga olgan holda Sirojiddin Sayyid asarlari tilining badiiyatini ta’minlovchi vositalarni o‘rganishni oldimizga maqsad qilib olganmiz. Shoir she’rlarida o‘zbek tilining jozibasi, ohangdorligi, ifodaliligi , ta’sirchanligi turfa lingvistik vositalar yordamida tasvirlab berilgan. S.Sayyidga xos lingvopoetik mahoratni belgilashda mazkur jihat muhim va dolzarb hisoblanadi.

¹ Қримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Тошкент:Маънавият, 2008. –Б.83.

² Ўша манба, –Б.87.

Tadqiqotning maqsadi. Sirojiddin Sayyidga xos lingvistik mahoratni belgilashda shoir she'rlari tilining badiiyatini ta'minlovchi vositalarni lingvopoetik jihatdan tahlil qilish dissertatsiyaning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- matn hodisasining lingvistik mohiyatini aniqlash;
- badiiy asar tilining o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida o'rganilish holatini baholagan holda ularni lingvopoetik tadqiqot doirasida umumlashtirish;
- shoirning so'z tanlash va qo'llashdagi o'ziga xos individual uslubining lingvistik va badiiy estetik asoslarini ochib berish;
- Sirojiddin Sayyid asarlari tilining badiiyatini ta'minlovchi fonopoetik, leksik poetik, sintaktik poetik vositalarning xususiyatlarini o'rganish;

Tadqiqot ob'ekti. Mahoratli so'z san'atkori Sirojiddin Sayyidning asarlaridagi poetik xususiyatlarni yuzaga chiqaruvchi lingvistik vositalar tadqiqot uchun ob'ekt qilib olindi.

Tadqiqotning metodologik asosi va metodlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy g'oya, ma'naviy qadriyatlarga munosabat va ilm fan taraqqiyoti bilan bog'liq qarashlari hamda dialektik falsafaning keng tarqalgan tadqiq usullari ishning metodologik asosini tashkil etadi. Mazkur ishni lingvopoetik aspektda tadqiq etishda dialektik tafakkur qonuniyatlarini badiiy matnga tadbqiq qilgan holda shakl va mazmun, makon va zamon, umumiylik va xususiylik, sabab oqibat tamoyillariga tayandik. Asosan, semantik stilistik, komponent tahlil, tavsiflash, qiyoslash, lingvopoetik va pragmalingvistik tahlil usullaridan foydalanildi.

KIRISH. Badiiy asar tilini o'rganishning nazariy va amaliy masalalari

O'zbek tilshunosligi ham boshqa fan sohalari kabi doimo o'sish va o'zgarishda. U o'zining nazariy va amaliy faoliyatini davr bilan hamnafaslikda takomillashtirib bormoqda. Bugungi kun o'zbek tilshunosligining taraqqiyoti to'rtta eng muhim omillar asosida rivoj topayotgani, shulardan biri – o'zbek tilini o'rganishning amaliy bosqichida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar asosida bevosita kuzatishda berilgan nutqiy hodisalar zamiridagi lisoniy mohiyatlarni idrok etishga intilish olimlarimiz tomonidan e'tirof etilmoqda. Ana shunday nutqiy hodisalardan biri bo'lgan matn va uning qurilishini o'rganish o'zbek tilshunosligida so'nggi yillarda rivoj topayotgan matn lingvistikasi, pragmalingvistika, lingvopoetika va kognitiv tilshunoslik sohaslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etyapti. Buning natijasi o'laroq, shaxs va til munosabatiga e'tibor kuchaymoqdaki, bu tilshunoslik fanini idrok etish, bilish, tushunish, tahlil qilish faoliyatlariga oid tushuncha va kategoriyalar bilan boyitmoqda. “Natijada tilshunoslikning mantiq, psixologiya, bilish nazariyasi kabi kognitiv fan sohalari bilan hamkorlikka ehtiyoji kuchaymoqda”¹. Demak, hozirgi kunda tilshunoslar e'tiborini tortib kelayotgan shaxs va til munosabati bevosita kognitiv tilshunoslik bilan uzviy aloqadorlikda o'rganilishni taqozo etmoqda. Ishga bu tarzda amaliy yondashish keyingi yillarda ko'plab tilshunoslarni qiziqtirib kelayotgan badiiy asar tilini lingvistik jihatdan tahlil qilishda kutilgan natijalarni berishi shubhasiz. Chunki “lingvistik tahlil – kognitiv tahlilning bir turi, uning ma'lum bir ko'rinishda namoyon bo'lishidir”.²

O'zbek tilshunosligida lingvopoetikaning oyoqqa turishida va rivojlanishida X.Doniyorov, S.Mirzaev, Q.Samadov, I.Qo'chqortoev, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.Umurqulov, I.Mirzaev, M.Yo'ldoshev kabi olimlarning xizmatlari katta bo'ldi.³ Ular badiiy asar tilining stilistik, badiiy -estetik jihatlarini yozuvchining so'z tanlashi, uning o'ziga xos tili, umumxalq tiliga bo'lgan munosabati, yangi so'z va iboralar yaratishi kabi omillar nuqtai nazaridan tekshirdilar. Ayniqsa, M.Yo'ldoshevlar tomonidan badiiy matn lingvopoetik xususiyatlarining o'zbek tilshunosligida birinchi marta dissertatsion planda tadqiq etilishi bu boradagi ishlarni yana bir pog'ona yuqoriga ko'tardi. Olim badiiy matnni lingvopoetik tahlil etishning yetti tamoyilini: shakl va mazmun birligi, makon va zamon

¹ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: Сангзор, 2006. –Б7.

² Сафаров Ш. Кўрсатилган асар. -Б.9.

³ Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. –Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962; Самадов Қ.Ойбекнинг тил маҳорати. –Тошкент, 1981; -Қўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. –Тошкент, 1975; Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. –Тошкент:Фан, 1981; Умуркулов Б. Бадий адабиётда сўз. –Тошкент: Фан, 1993; Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии): Дисс...док.филол.наук. –Ташкент, 1992; Юлдашев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан.док...дисс.автореф. –Тошкент, 2009.

birligi, matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash, badiiy matnga badiiy –estetik butunlik sifatida yondashish va asar konseptini aniqlash, badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash, badiiy matndagi eksplitsitlik nisbatini aniqlash, badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash tamoyilini ishlab chiqdi.

Individuallik ham badiiy matn ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, lingvopoetik tahlil jarayonida yozuvchining o'ziga xos uslubiy mahoratini tadqiq etishda bosh me'zon hisoblanadi. V.V.Vinogradov ta'kidlaganidek, "individual uslub tushunchasi badiiy matn tadqiqining asosiy kategoriyalaridan biri sifatida tan olinadi". Individuallik, yagonalik yozuvchining ijod jarayonida so'z tanlash san'ati bilan belgilanadi. Bu o'z o'rnida yozuvchining lisoniy shaxsiyatini, ya'ni badiiy tafakkurni, shaxsiy idrok tarzini, qolaversa, lisoniy layoqati – lingvistik mahoratini namoyon etadi. Ayniqsa, individual uslub tushunchasi biror muallif asarlari tilini unga zamondosh ijodkor asarlari tili bilan qiyosiy tadqiq qilinganda yanada oydinlashadi. Chunki yozuvchi uslubida san'atkor tomonidan estetik jihatdan qo'llangan barcha til vositalari uning badiiy tafakkuri bilan ichki bog'liqlik asosida birlashadi.

Badiiy asar tilini o'rganish keng qamrovli jarayon bo'lib, nafaqat adabiyotshunoslikka bog'liq badiiy g'oya, fikr, umumiy obrazlilik, individuallik, badiiy mahorat, shuningdek, tilshunoslikka oid semiotika, konnotatsiya, pragmatika kabi tushunchalarni umumlashtiradi, kognitiv fan sohalari bilan ham bog'lanib, o'zining tahlil doirasiini bilish, tushunish, idrok etish, tahlil qilish, lisoniy tafakkur, lisoniy ong, lisoniy faoliyat, lisoniy shaxsiyat kabi tushunchalar bilan ham kengaytirib boradi. Ishga mana shu tarzda kompleks tarzda yondashish lingvopoetika uchun kutilgan natijalarni beradi.

I BOB. Matn mazmunini tahlil etish muammolari

1.1. Matn tushunchasi va uning tilshunoslikda o'rganilishi

Umumxalq nutqidagi barcha birliklar badiiy tilda u yoki bu darajada estetik qimmat kasb etadi. Aytish lozimki, tilning estetik funksiyasining asosiy yuzaga chiqish o'rni adabiy asar matni ekan, bu vazifaning o'ziga xos xususiyatlarini faqat tilshunoslik va adabiyotshunoslik doirasida o'rganib bo'lmaydi. Mazkur vazifani har tomonlama mulammal o'rganish uchun adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, poetika kabi adabiyotshunoslik yo'nalishlari va til tarixi, uslubiyat, etimologiya, leksikologiya, semasiologiya, grammatika kabi tilshunoslik sohalari biri-biri bilan hamkorlikda ish ko'rishi lozim. Binobarin, tilning estetik vazifasi masalasi bu ikki yirik fan oralig'idagi murakkab muammodir.

Matn tilshunosligi fani aynan badiiy matnni o'rganish, tilning estetik vazifasini tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning bir sohasidir. Mazkur soha bo'yicha ham o'zbek tilshunosligida qator ilmiy ishlar amalga oshirildi. Tilshunos olim A. Mamajonovning "Tekst lingvistikasi" nomli qo'llanmasida matn va uning o'ziga xos xususiyatlari, matn turlari, matn qismlarini bog'lovchi vositalar yuzasidan fikr yuritiladi. E. Qilichev o'zining "Matnning lingvistik tahlili" qo'llanmasida matn ko'rinishlari, badiiy matn va uni lisoniy tahlil qilish xususida so'z yuritadi. Tilshunos olim M. Hakimov "O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari" nomli nomzodlik ishida matn, xususan, ilmiy matnning sintagmatik va pragmatik jihatlariga to'xtalib o'tadi. Tilshunos olim M. Yo'ldashevning "Badiiy matn va uni lingvopoetik tahlili asoslari" nomli qo'llanmasida badiiy matn va uning lisoniy xususiyatlari haqida so'z yuritilgan.¹

Matn nutqiy jarayon mahsuli bo'lib, tugallangan, yozma shaklda mavjud bo'lgan, adabiy shakllangan, supersintaktik butunliklardan tashkil topgan, leksik-grammatik, mantiqiy, uslubiy jihatdan shakllangan, aniq maqsadga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Har qanday matn ma'lum bir mazmunni tashish uchun xizmat qiladi, o'z xususiyatiga ko'ra turli axborotlarni etkazadi. Matn nutq korinishi bo'lib, vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlikdir. Har bir matn murakkab tuzulish va mazmun mundarijasiga ega bo'lib, u og'zaki va yozma ijod namunasi hisoblanadi.²

Matn atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"³da matn so'zining arabchadan o'zlashganligi, aynan "tekst" so'zi anglatgan ma'noga

¹ Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. T., Fan, 1989; E. Qilichev Matnning lingvistik tahlili. Buxoro, 2000; Hakimov M. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatic xususiyatlari. NDA, T., 1993; Yo'ldashev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T., 2007.

² Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. T., Fan, 1995. 5-bet.

³ O'zbek tilining izohli lug'ati. M.: Rus tili, 1981. 452-bet.

tengligiga ishora qilinadi. Bugungi kun tilshunosligida matn tilning alohida yirik birligi va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy ob'yekti sifatida talqin etiladi. Matnni tadqiq etishda uni so'z birikmasi va gapdan farqlash lozimligi, matnning ham o'z kategoriyasi va qonuniyatlari borligi aytiladi. Tilshunos M. Xakimov ilmiy matn tadqiqiga bag'ishlangan ishida bu haqda shunday yozadi; "Matn so'zining lug'aviy manosida birikish, bog'lanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o'zaro qaysidir bog'lovchilar yordamida birikishini o'rganish" "Matn tilshunosligi" sohasining asosiy muammolaridan biri bo'lib qoldi. Matn birliklarini o'zaro bog'lanishini ifoda etuvchi takror va bir necha ko'rinishlari, olmosh turkumiga xos ba'zi so'zlar, gapning so'roq shakliga xos ko'rinishining matn hosil qilishdagi vazifalari matn tilshunosligida alohida o'rin tutadi".¹

Mazkur ishda muallif "matn" atamasini "nutq", "kontekst" kabi boshqa lingvistik atamalardan farqlaydi. Nutq og'zaki va yozma shakllarda namoyon bo'ladi. Nutqning yozma shakli matn atamasini ifodalaydigan mazmunga muvofiq keladi. Nutq sub'yektdan adresatga yo'naltiruvchi nutqiy faoliyat hisoblanadi. Matn esa faqat ob'yektiv informatsiyadan iborat bo'lmay, balki o'ziga pragmatik mazmunni ham qamrab olgan nutqning material ko'rinishidir. Ilmiy adabiyotlarda kontest atamasi nutqiy vaziyat mahsuli deb ko'rsatiladi. Kontest –bu bir leksik va grammatik birlik asosida ifodalangan ma'no yoki tushunchani oydinlashtirish uchun keltirilgan, tuzulgan minimal nutq birligi. Qoida bo'yicha bu so'z birikmasi, ba'zan gap, kamdan kam abzas yoki yaxlit matnga teng keladi.

Ko'rinadiki, kontekst so'zlarning semantik ma'nosi reallashadigan o'ziga xos maydon hisoblanadi. Borliqning mavjud dalillari lug'atlarda berilganidek alohida so'zlarda, tugal xabarlarida, matnlarda, ularning minimal bo'lagi bo'lgan gaplarda aks etadi. So'zlar va ular ma'nolarining ong va borliqqa munosabati gap orqali bog'langan, gapdan tashqarida ular faqat potensial birlikdir xolos. Ularning vazifasi faqatgina butun bi mexanizm bilan aloqada tushuniladi.

Tilshunos olimlardan E.Qilichev matnga quyidagicha ta'rif beradi: Matn hamma elementlari bilan o'zaro zich aloqada bo'lgan va avtor nuqtai nazaridan ma'lum bir maqadga yo'naltirilgan nominativ-estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilmadir. Tilshunos I. Rasulovning fikricha, gapdan katta birlik murakkab sintaktik butunlik bo'lib, u fikran va sintaktik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan gaplar birlashmasidan iborat. Unda fikr gapga nisbatan ancha to'liq bo'ladi. Hozirgi davrda matn turlari va ularga xos bo'lgan belgi-xususiyatlarni aniqlash davom etmoqda. Biz matnning o'ziga xos belgilari sifatida axborot berish, mustaqil gaplar yoki murakkab sintaktik butunliklardan tashkil topishi, tarkibiy qismlar orasida mazmuniy

¹ Hakimov M. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatic xususiyatlari. NDA, T., 1993. 7-bet.

va sintaktik aloqalarning mavjudligi, makon va zamonda izchilligi, yaxlitligi, tugallanganligi, bir umumiy mavzuga egaligi kabliarni tushunamiz. Matn ana shunday belgilarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab kommunikativ-sintaktik butunlikdir.¹

Matn gapdan ko'ra yirik hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsuli, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan yozma nutq ko'rinishidir. Matn hajm begisiga ko'ra minimal va maksimal matnlarga ajratiladi. Ayrim adabiyotlarda matn hajm belgisiga ko'ra uch turga ajratilgan: kichik, o'rta, katta hajmli matnlar.

Telegramma, ma'lumotnoma, ariza, ishonch xati, tushuntirish xati, vaqtli matbuotda chiqadigan e'lon va kichik xabarlar kichik hajmdagi matnlar sanaladi. O'rta hajmdagi matnlarga hikoya, qissa, she'r, doston, poemalar kiradi. Katta hajmli matnlarga povest, roman, dramatik asarlar, trilogiyalar kiradi.²

Biroq yuqoridagi kabi bo'linishlar ayrim chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Boisi shunday dostonlar borki hajm jihatidan romandan katta. Nafaqat hajm jihatidan, balki ichki mazmun, xarakterlar tasviri, ruhiyat talqini jihatidan ham romanlardan qolishmaydigan dostonlar bor. Masalan, "Alpomish", "Go'ro'g'li" singari go'zal dostonlarimiz shakl va mazmun jihatidan yirik hajmli asar hisoblanadi. Ko'rinadiki, bu tarzda tasnif jiddiy asosga ega emas. Binobarin, matnni tilshunoslikda keng tarqalgan ikkiga ajrarib tekshirish tamoyili asosida o'rganish ham mantiqan, ham amaliy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Minimal matn deganda biror mavzuni yoritishga qaratilgan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, hajviy asarlar, nomalar, she'rlar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog'lamalar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi. Masalan: Sevgi nima? Insoniyat paydo bo'ptiki, shu savol ustida bosh qotiradi. Ammo javob topolmaydi. Agar inson sevgining barcha sir-asrorini bilganida edi, uning modeli – qolipini yaratgan bo'lardi. Sevgi hech qanday qolipga sig'magani uchun ham sirli va abadiydir (O'.Hoshimov).

Keltirilgan kichik hajmli matnni tahlil qilsak, ushbu matnning ichki mazmuni savol shaklidagi sarlavha orqali yuzaga chiqqan. Matn to'rtta gapdan tuzilgan. Butunlikni taminlayotgan vositalar sirasiga izchil va tugal ohang, ammo bog'chivsi, agar bog'lovchisi va matnning mazmuniy o'qini tashkil etuvchi sevgi so'zi kiradi. Demak, masala savol shaklida qo'yilyapti va unga matn orqali javob berilyapdi.

¹Yo'ldashev M. Ko'rsatikgan qo'llanma. 11-bet.

²Qilichev E. Ko'rsatilgan qo'llanma. 6-7-betlar.

Mutaxassislar ba'zan bittagina gap ham mikromatn tushunchasiga teng kelishi mumkin, degan fikrni aytib o'tadilar. Masalan: Bahor... Bu jumlada "tabiatning jonlanishi", "hamma yoqning ko'm-ko'k bo'lishi", "atrof-muhitning go'zallikka burkanishi", kabi yashirin mazmun mavjuddir. Lekin bu tildagi ko'rinishlarni tor ma'noda matn deb atash mumkin emas. Chunki matn tuzilishi jihatdan gapdan yirik sintaktik butunlikdir. Demak, u gaplardan tashkil topadi. Yashirin mazmun sifatida havola etilayotgan ma'nolar so'zning ma'no tuzilishi bilan bog'liq. Mazkur gap o'zidan keyin keladigan izohlovchi yoki kengaytiruvchi gaplar bilan bir butunlik hosil qilgandagina matn deyish to'g'ri bo'ladi. Agar yashirin mazmunga qarab xulosa chiqariladigan bo'lsa, istalgan so'zni matn deyish mumkin bo'ladi.¹

Maksimal matn deyilganda keng ko'lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoqi bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman kabi yirik hajmli asarlar maksimal matn deyiladi. Maksimal matn mikromatnlardan tashkil topadi. Eng kichik butunlik abzatsga, eng katta butunlik esa bob (qism yoki fasl) larga to'g'ri keladi. Bunday matn tarkibida epigraf, so'zboshi (muqaddima) so'ngso'z (epilog) kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Ular asar mazmuni va g'oyasiga, shuningdek, mavzuning tanlanishi va yoritilishiga oid ayrim masalalarga qo'shimcha izoh bo'lib keladi. Maksimal matn tashqi jihatdan turlicha shakllangan bo'ladi. Masalan, Pirimqul Qodirovning "Humoyun va Akbar" tarixiy romanini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, mazkur asar ikki mustaqil qismga ajratiladi. Har ikki qism alohida nomlanadi (Humoyun, Akbar). Qismlar 9-10 tadan bo'limlarga bo'linadi va har bir bo'lim voqea bo'lib o'tayotgan joy hamda gap kim yoki nima haqida ketayotganligiga qarab nomlab boriladi. Masalan, 1. Agra. Hamida bonu arosatda. 2. Ganga. Ko'rgilik.

Maksimal matnning eng kichik birligi abzatsdir. Abzats bir mazmuniy butunlik bo'lib, matnning bir xat boshidan keyingi xat boshigacha bo'lgan qismi hisoblanadi. Abzats xabar boshlanishi (abzatsda aytilmoqchi bo'lgan mavzu haqidagi dastlabki, qisqacha xabar), xabarning, to'ldirilishi (dastlabki xabar to'ldiriladi, sharhlanadi), xulosa (xabar yakunlanadi, natija aytiladi), bog'lovchi vositalar (bog'lovchi vositalar abzatsni o'zidan oldingi abzatsga bog'laydi) kabi qismlarni o'z ichiga oladigan butunlikdir.

Abzatsdagi xabar tema –rematik munosabatdagi gaplarda ifodalanadi. Tema (yunoncha thema- asos bo'lgan narsa) deb gapning aktual bo'linishida so'zlovchi va tinglovchi uchun ma'lum bo'lgan narsani ifodalovchi, yangi narsa ifodalashga o'tish uchun asos xizmatini bajaruvchi qismga aytiladi.

Rema (rema- commeataire-ma'lumot, sharh) esa temadan keyin kelib so'zlovchi tinglovchiga bildirmoqchi, aytmoqchi bo'lgan yangi xabar mazmunini ifodalovchi qism, gapning

¹ Hakimov M. Korsatilgan avtoreferat. 24-bet.

malumot (axborot) qismi.¹Odamda, gapning ega sostavi tema, kesim sostavi esa rema vazifasida keladi: Sotvoldi nima qilishini, qayoqqa borishini, bilmay hayron turardi. Lekin har doim ham ega sostavi tema bo'lavermaydi. Buni quyidagi misol orqali ko'rishimiz mumkin; Qo'shnimga o'g'li mashina olib berdi. Bu gapda tema to'ldiruvchi vazifasidagi so'z bilan ifodalangan. Rema esa ega va kesim sostavidan iborat gap bilan ifodalangan. Demak, tema- rematik munosabatdagi gaplarning ketma-ket kelishi natijasida abzats yuzaga keladi.

Abzatsni tashkil etuvchi gaplar o'zaro sinsemantik (sintaktik va leksik- semantik) hamda avtosemantik (grammatik aloqalarsiz, faqat semantik) usulida birikadi. Shuningdek, abzatslarning strukturasiga ko'ra quyidagi ko'rinishlari mavjud; 1) sodda gapdan iborat bo'lgan abzatslar; 2) qo'shma gapdan iborat bo'ladigan abzatslar; 3) periodik nutq formasidan iborat bo'lgan abzatslar; 4) superfrazali sintaktik butunlikdan iborat bo'lgan abzatslar; 5) ko'chirma – o'zga gapli abzatslar.²

Ko'rinadiki, matnlar hajm belgisiga ko'ra ikkiga bo'linadi; maksimal matnlar va minimal matn.

Til taraqqiyoti jamiyat sotsial strukturasining rivojlanishi bilan bog'liq. Kishilik jamiyati qanchalik tez taraqqiy qilsa, til ham shunchalik tez boyib boradi.

Mustaqillik natijasida yuzaga kelgan sharoit O'zbekistonda yaashovchi barcha xalqlar tilining , jumladan o'zbek tilining rivojida alohida ahamiyat kasb etdi. Keyingi davrlarda o'zbek adabiy tilining funksional uslublari yuksak darajada o'sdi, rivoj topdi. Yozma nutqqa xos bo'lgan turli janrdagi asarlar, shuningdek, tarjima ishlari nihoyatda ko'paydi. Natijada hozirgi o'zbek adabiy tili funksional uslublari nuqtai nazaridan ham, sinonimik, omonimik, antonomik hamda polisemantik hodisalari, grammatik strukturasini jihatidan ham shakllangan va rivojlangan tillar qatoridan o'rin oldi. O'zbek tilining ijtimoiy funksiyasi kengaydi, turli stilistik modifikatsiyalar vujudga keldi.

Hozirgi zamon o'zbek tilining rivoji xalqimizning siyosiy, ijtimoiy-madaniy hayotidagi muvaffaqiyatlar, fan va texnika yutuqlari, ilmiy progress bilan uzviy bog'liqdir, o'zbek tilining bunday taraqqiyoti uning butun sistemasida, sathlarida, jumladan, sintaktik qurilishida ham o'z aksini topdi.

Traditsion tushunish va izohlash "gap" nutqning yirik birligi hisoblanar edi. Lekin hozirgi zamon tilshunosligidagi so'nggi izlanishlar gap doirasidan tashqarida, gapdan yirik nutqiy stilistik butunliklar mavjudligini isbot etdi. Bunday nutq ko'rinishining mavjudligi tilshunoslar oldiga qator muammolarni aniqlash masalasini ko'ndalang qilib qo'ydi.

¹ Xojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.- T., O'qituvch, 2002. 72-bet.

² Mamajonov A. Tekst lingvistikasi.- T., Fan 1989. 39-40-betlar.

Hozirgi vaqtda nutq birliklarining kichik sintaksisidan katta sintaksisga o'tish qonuniyatlari taqdim etilmoqda.¹ Endi tilshunos olimlar diqqati nutqiy ehg yirik birliklar – grammatik jihatdan mustaqil shakllardan bir necha (sodda yoki qo'shma) gaplar birikmasidan tashkil topgan yaxlit murakkab jumlar, abzas hamda to'liq shakllangan nutq nazaruyasini o'rganishga qaratilmoqda. Bu masalalarni o'rganishga qaratilmoqda. Bu masalalarni o'rganish, tatqiq etish, ayniqsa, 70-yillardan boshlab rus va g'arb tilshunosligida kuchayib ketdi. Ma'lum kuzatishlardan so'ng grammatik jihandan shakllangan gaplarning o'zaro mazmunan birikuvidan tashkil topgan sintaktik butunliklar matn deb ataladigan bo'ldi.

So'nggi yillarda umumiy tilshunoslikda yaratilgan ishlarda esa katta bir asarning ayrim qism-fragmentlari, qisqa hikoyalar, kichik hajmdagi maqolalar, ish qog'ozlari turlari kabilar to'laligicha matn deb nomlana boshladi.

Matn lingvistikasi muammosi bilan bog'liq masalalar dastlab Praga lingvistik maktabi vakillari tomonidan kuzatilgan bo'lib, ular bu masalani funksional-semantik aspektda analiz qilganlar.²

1974-yilda Moskvada matn lingvistikasiga bag'ishlangan nazariy konferensiya o'tkazilib, unda bu problemaga bag'ishlangan bir necha doklad va ilmiy axborotlar tinglandi. Tilshunos olimlarning chiqishlarida matn lingvistikasi muammosining murakkabligi, ko'p aspektliligi, shu bilan birga, uning lingvistika fanida yangi soha ekanligi qayd etildi. Bu konferensiya materiallari tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg'otdi, ularda aks etgan tahlillar, natijalar matn lingvistikasi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni o'rganishda bundan keying izlanishlar uchun asosiy stimul bo'lib xizmat qilib kelmoqda.³

Insonlar o'rtasida fikr almashish, aloqa, muloqot yaxlit murakkab jumla asosida amalga oshadi. Yaxlit murakkab jumla matnning alohida ko'rinishi bo'lib, mustaqil gaplar guruhidan tashkil topadi. Mustaqil gaplardan muayyan guruhlariga ajratilishi o'z navbatida umumiy mazmun birligi, butunligini ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi uchun tugal fikr anglatadi. Aynan fikr tugalligi alohida olingan gapda fikrlovchi mezon hisoblanadi. Shuni aytish kerakki, uning fikr butunligi yaxlit murakkab jumla tarkibida shakllanadi. Boshqa mustaqil gaplardan bir qator ko'rinishlari bilan hamkorlikda yaxlit mazmun yaratadi.

Mustaqil gaplar o'rtasidagi hamkorlik o'zaro mazmun va sintagmatik jihatdan o'zviy bog'lanish jarayonida namoyon bo'ladi.

¹ Долгова О.В. Синтаксис как наука о построении речи. М., Высшая школа, 1980,с.143

² Зилберман. Лингвистика текста и обучения чтению английской научной литературы.М., 1988,с.23

³ Лингвистика текста: Материали научной конференции МГПИИЯ им. М.Тореза. М., 1974.

Demak, mazmun va sintagmatik jihatdan o'zaro uzviy bog'langan alohida olingan gapga nisbatan yaxlit murakkab jumla tashkil etadi.

Gap ham murakkab jumla ham sintagmatik planga mansub bo'lib muayyan qurilish modellari va ularni nutqda ifodalashini nazarda tutadi. Shunga ko'ra ularni ikkisi ham til va nutq birligi hisoblanadi. Yaxlit va murakkab jumla terminini xususiyatiga ko'ra mustaqil gaplar birikmasidan tashkil topgan gaplar guruhiga nisbatan sintagmatikligi nazarda tutiladi.

Sintagmatik planda mustaqil gaplar birikmasi maxsus tartiblashtirilgan gaplar zanjirini aks ettiradi. Funksional planda esa bu birikma keng yoyiq tugal fikr ifodasini aks ettiradi. Shunday qilib yaxlit murakkab jumlar mikromatnida ayni vaqtda ham sintagmatik ham funksional tushuncha. Bu maxsus tartibga solingan umum bir fikr anglatuvchi gaplar tutash zanjiri matn yaxlitligi qismlar o'rtasidagi o'zaro uzviy bog'lanish hozirgi zamon tilshunosligida matn konkretligi nomi bilan yuritiladi. Bu termin lotin tilidagi "kongres" bog'langan, o'zaro tutash so'zidan olingan.

Yaxlitlik yana molekulyar fizika termini bo'lishi kogeziya orqali ham ifoda etiladi. Kogeziya-molekulalarning jismda qo'llanishi.

Matn ma'no yaxlitligi uning tema (mavzu) birligida aks etadi. Tema (mavzu) asosida mujassamlashgan umumiy matn mazmuni yotadi. Mavzu-yadro mazmun hisoblanadi. To'liq nutqiy asar mavzusi bilan alohida boblar, paragraflar murakkab sintaktik butunliklarini xususiy mavzulari o'rtasida faqat bevosita aloqa bor. To'liq nutqiy asar mavzu xususiy mavzu arifmetik yig'indisi emas. Bu narsa badiiy adabiyot janrida yana yaqqol ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, badiiy asar asosiy g'oyasi bevosita yozuvchi tomonidan bayon etilmasdan, faqat obrazlar sistemasi orqali inson hayot yo'lining aniq tomonlari vositasida kitobxonga yetkazadilar. Shubhasiz, tabiat tasviri inson tashqi qiyofasi tasviri, asar qahramonlari, hayoti yoki ichki kechinmalari haqidagi hikoyalar yig'indisi, asar boblari, bo'laklari murakkab jumlarining xususiy mavzulari jihatidan hech qachon to'liq nutqiy asar g'oyaviy tematik mazmunga tenglashtirmaydi.

Xuddi shuningdek, alohida boblarda, paragraflarda, abzaslarda o'z aksini topgan xususiy temalar mexanik yig'indisi yirik publistik asar yoki ilmiy ishning asosiy g'oyasini keltirib chiqarimaydi. Yaxlit murakkab jumla asosidagi tema mayda xususiy tema hisoblanadi. Uning tarkibidagi mustaqil gaplar bir-birini mazmunan o'zaro to'latib umumiy hamkorlikda muayyan bir tema hosil qiladi. Alohida olingan gap tema yarata olmaydi.

Holbuki, uning tematik yo'nalishi yaxlit murakkab jumla tarkibida shakllanadi.

Yaxlit murakkab jumla temasining birligi o'z ifodasini ko'pincha zanjir so'zlarni muntazam takrorida rekurentlikda topadi.

Xullas, yaxlit murakkab jumla temali xususiyatiga ega. Yaxlit murakkab jumlalani ma'lum tema atrofida mujassamlashishi matn ma'no yaxlitligini yoki matn semantik izotopeyasini aks ettiradi. Bir temani ikkinchisiga o'tishini anglatadi. Shubhasiz, tema yaxlitligida o'z aksini muntazam takrorlovchi zanjir so'zlardan yoki rekurektiv mavjud so'zlarda topadi. Zanjir so'zlar rekurektivligini ularni so'zma-so'z takrorlash tematik yoki sintaktik ifoda hamda orominalizasiya asosida namoyon bo'ladi.

Ushbu xollarni barchasida tema birligini yaxlit murakkab jumla tarkibidagi zanjir so'zlar referensiyasini o'xshashligida ta'min etiladi. Ya'ni atoqli turdagi otlar, olmoshlar va boshqalar yaxlit murakkab jumla doirasida yagona predmet bilan bog'liq bo'ladi va shu asosda umumiy o'xshashlik xususiyatiga ega bo'ladi.

Har safar bir yaxlit murakkab jumla doirasida yagona tema ichida qo'llanuvchi bir atoqli ot yoki turdosh otning o'zida hamda uning leksik sintagmalari yoki uni almashtirib kelgan olmosh bir predmetni o'zini yoki shaxsini nazarda tutadi.

1. Tabobat ilmining bobokaloni Abu Ali ibn Sino va uning ustози Abu Bakr Muhammad Zakiriyoz al-Roziy nonning shifobaxshligiyu, dori-darmonlik xususiyatlariga katta ahamiyat berganlar va uni anchagina kasalliklarni davolashda qo'llaganlar.

2. Oshqozoni buzilib, ichi ketgan yoki yurakburug' kasaliga chalinganlar kunda uch mahal qattiq non yeb, orqasidan bir piyola qattiq ichib yuborsa, kasallik taqqa to'xtaydi.

3. Yoinki, qattiq non talqonini qattiqqa qorishtirib iste'mol etish zarur.

4. Bu – yurakburug'ning davosi.

5. Yana, tandirdan uziboq oftobda quritilgan obi non ich o'tganida va xatto qon aralash ich ketish kabi yuqumli kasallikka ham shifo bo'ladi.

6. Ko'ngil aynib yeganini qusib yuboradigan, oshqozonda achishish paydo bo'lgan bemorlarga Abu Bakr al-Roziy nonni asalga botirib yeyishni tavsiya qilgan.

7. Al-Roziy ham, Ibn Sino ham nonni sutga to'g'rab yeb yurgan kishining hazmlash a'zolari faoliyati yaxshilanishi hamda rang-ro'yi tiniq va chiroyli bo'lishini ko'p marotaba ta'kidlashgan.

8. Ko'ngil behuzur bo'lganda, qaynoq suvga non to'g'rab, ivitib, dokadan suzib ichilsa, kishi yozilib ketadi.

Ushbu yaxlit murakkab jumla tarkibidagi rekurent zanjir element (turdosh ot non) bir tushuncha *davolash* bilan butun birikma davomida bog'lanadi. Ular yagona referent *non* tushunchasi bilan matnni turli joylarda bog'langan zanjir elementlarni yagona o'xshash referentlar bilan bog'liqdir. O'xshash referentlik xususiyati bilan bir qatorda imotikatsiya hodisasi ham tema birligining butun birligini tashkil etadi.

Sintaksis hodisa sifatida matn maxsus leksik-grammatik vositalar va umumiy mazmun talabi bilan birikkan birdan ortiq mustaqil gap turlarining yig'indisidan iborat. Matn o'ziga xos murakkab sintaktik strukturaga ega bo'lgan nutqning eng yirik ifodasidir.

Matn til va nutq sintaktik sathining eng yuqori, oliy yirik birligidir, deydi O.I. Moskalskaya, u til belgilar sistemasining bir qismidir, u til va nutq birliklari ichida eng mustaqildir¹. Haqiqatan ham nutq birliklarining boshqa ko'rinishlari matnga nisbatan sintaktik va semantik jihatdan o'z mustaqilligini yo'qotadi.

T.M. Nikolaevaning ta'kidlashicha, matn formal jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan nutq ko'rinishigina emas, balki bir butun mazmuniy yaxlitlik hamdir².

Matnning asosiy funksiyasi kommunikativlikdir. Kommunikativlik matnda nutq birliklarining ierarxik sistemasi, kichik birliklarning yirik birliklarga ergashishi, tobeligi asosida yuzaga chiqadi. Bu xususiyatni lingvist olimlar matnning asosiy xarakteristikasi sifatida ko'rsatadilar. Bunday qarash matnga nutq birligi sifatida umuman baho berishdir.

Matn tilning turli sathlarida o'rganiluvchi birliklar yig'indisidan tashkil topadi. Matn birliklari ularning nutq kommunikasiyasidagi funksiyalariga ko'ra belgilanadi va farqlanadi.

Matn tuzilishi, semantik xususiyati jihatidan yakka sistema (monosistemnoe) xarakteridagi sintaktik struktura emas, balki ko'p sistemali (polisistemnoe), ya'ni bir necha xil sistemalar kompleksidan iborat bo'lgan sintaktik hodisadir³.

Matn o'zaro aloqador bo'lgan morfologik birliklar yig'indisidan iborat bo'lgan murakkab struktura deb atash ham mumkin. Bu o'rinda u morfologik sistema sifatida tushuniladi. Matn o'zida bir necha leksik birliklarni mujassamlashtirgan eng yirik nutq birligi sifatida esa bir butun leksik sistemani shakllantiradi. Shuningdek, matn bir vaqtning o'zida sintaktik sistema, semantik sistema hamda stilistik usullar sistemasi hisoblanishi ham mumkin. Shu jihatdan olganda, matn sistem tilshunoslikning eng murakkab, ko'p qirrali tekshiruv ob'ekti hisoblanadi.

Matn yuqorida ko'rsatilgan sistemalarning bir ko'rinishi (masalan, sintaktik yoki semantik sistema) sifatida tadqiq etilishi mumkin. Demak, matn bir necha leksik-grammatik va stilistik sistemalar yig'indisidan, sistemalar sistemasidan iborat. Matn podsystemalari tilshunoslikning turli sathlarida tekshiruv ob'ekti sifatida talqin qilinadi.

Dialektika bir hodisa bir necha mohiyatlar majmuasining ifodasi sifatida reallashuvi yoki bir mohiyat turli ko'rinishlarni o'z ichiga olishi mumkin, deb ta'lim beradi. Bu qonuniyat matn qurilishida ham kuzatiladi. Ya'ni bir matn turining shakllanish jarayoni bir

¹ Москальская О.И. Грамматика текста. М., 1981, стр.3-4

² Николаева Т.М. Актуальные членение-категория грамматики текста. Вопросы языкознания, 1972, №2, с.48

³ Сидоров Е. Проблемы речевой системности. М., Наука, 1987, с.98

necha xil leksik-grammatik, semantik-stilistik xususiyatlar ifoda etiladi. Bu holat nutq hodisalarining mohiyat tomonidan bir-biriga bog'liq aloqador holda namoyon bo'lishidan kelib chiqadi.

Matn tilshunoslikning eng murakkab tadqiqot ob'ektlaridan biridir. Buning sababi shundaki, umumiy tilshunoslikda (garchi bu borada ancha ishlar qilingan bo'lsa ham) hali "matn nazariyasi" o'zining to'la va aniq, yagona ifodasini topgani yo'q. Nutqning matn xolidagi formasi haqida umumiy bir fikrga kelinmagan, "Matn" so'zi termini tilshunoslikda juda keng ma'noda qo'llanadi. Shuning uchun "matn" tushunchasini aniqlashda unga xos hamma belgi-xususiyatlarni hisobga olish lozim bo'ladi:

1. Matn - bu eng avvalo, nutq formasi: u og'zaki va yozma holda ifoda etilishi mumkin.
2. Matn - predmet, voqea, hodisalar haqidagi ma'lumot, xabarlar yig'indisi.
3. Matn - mazmuniy va struktural tugallikka ega bo'lgan yirik sintaktik struktura.
4. Matn - biror avtorning nutqi.
5. Matn – nutq avtorining voqelikka ega bo'lgan turli munosabati.
6. Matn - analiz qilish uchun tavsiya etilgan qo'lyozma, nashr qilingan asar yoki ularning fragmentlari.
7. Matn - mazmunan ketma-ketlilik xarakteriga ega bo'lgan bir necha sodda yoki qo'shma gaplar yig'indisi.

Ko'rinadiki, matn tushunchasi juda keng ma'noni qamrab oladi. Tilshunoslikda "matn" termini, asosan, bir-biridan farqlanuvchi ikki sintaktik birlikni ifodalash uchun xizmat qiladi: bir ma'noda "matn" termini ostida bitta yoki bir nechta gaplardan tashkil topgan, tugallangan fikr anglatuvchi nutq ko'rinishi tushunilsa, ikkinchi bir ma'noda bir butun poetik yoki prozaik asar, gazeta yoki jurnal maqolasi, ilmiy doklad, referat yoki monografiya kabi yozma nutq formalari, ba'zan bir butun asarning boblari, bo'limlari, qismlari va ularni tashkil etuvchi abzaslar ma'nosi anglashiladi. Demak, matn lingvistikasining, ko'pincha farqlanmagan holda "matn" deb nomlanuvchi ikki ob'ektini farqlash kerak bo'ladi:

- I. Matn - keng ma'noda bir butun asar-makromatn degan so'z.
2. Matn - tor ma'noda yaxlit murakkab jumla - sintaktik butunlik - mikromatn demakdir.

Shunday qilib matn tushunchasi ostida quyidagi ikki ob'ektni tushinish lozim:

- I. Yaxlit murakkab jumla mikromatn.
2. Bir butun yozma nutq asari- makromatn.

Matnning bu ikki ko'rinishi ba'zan hajmi, chegarasi jihatidan teng kelib qolishi ham mumkin. Masalan, kichik hajmdagi qisqa hikoya yoki she'r, gazeta maqolalari, ob-havo

ma'lumoti, e'lon kabi bitta mikromatn – yaxlit murakkab jumladan iborat bo'lishi mumkin. Matn bo'lishi uchun komponentlar orasida mazmuniy va sintaktik bog'lanish bo'lishi shart. Matn tarkibiga kiruvchi nisbiy mustaqil gaplar - komponentlar mazmunan umumiy bir temani ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu tema matn komponentlari yordamida har tomonlama yoritiladi. Ana shu umumiy tema matnning mazmuniy yadrosi hisoblanadi. Bir mazmuniy yadroning yana boshqa bir mazmuniy yadro bilan bog'lanishi - aloqaga kirishi bilan makromatnlar hosil qiladi.

Inson alohida olingan so'zlar bilan emas, gaplar, matnlar yordamida gapiradi, boshqalar bilan fikr olishadi. Shuning uchun ham kommunikativ funktsiya bajarish darajasi jihatidan matn birinchi o'rinda turadi.

Matnning eng kichik birligi gapdir. Matn nazariyasi gapning aktual bo'linishi problemi bilan chambarchas bog'liqdir. Matnda ham gapga xos aktual bo'linish ku'zatiladi. Matn temasi - nutq predmeti, matn remasi esa temaning nimadan iborat ekanligidir. Matnning aktual bo'linishida gapiruvchi yoki yozuvchining strategiyasi, maqsadi muhim rol o'ynaydi.

Demak, matn semantik - sintaktik - stilistik butunlik bo'lib o'ziga xos murakkab strukturaga ega. Matn strukturasi tarkibiga kiruvchi komponentlar - birliklar quyidagilar:

- a) sodda yoki qo'shma gaplar, ularning murakkablashgan ko'rinishlari; ,
- b) yaxlit murakkab jumlar
- v) abzas;
- g) period.

Matn komponentlarining har bir mustaqil ko'rinishi (masalan, period yoki abzas) alohida tekshirish ob'ekti.

1.2. Badiiy matn va uni o'rganish usullari

Matn nutqiy jarayon mahsuli bo'lib, tugallangan, yozma shaklda mavjud bo'lgan, adabiy shakllangan, super – frazali butunliklardan tuzilgan, leksik, grammatik, logik, stilistik aloqalar bilan bog'langan, aniq maqsadli va pragmatik qurilmali nutqiy asardir.

Har bir matn ma'lum bir mazmunni tashiydi va so'z xususiyatiga ko'ra turli axborotlarni yetkazadi. Har xil axborotlarni yetkazishiga ko'ra matnlar badiiy matn, publisistik matn, ilmiy, rasmiy matn kabi turlarga bo'linadi.

Publisistik matbuot ko'proq matn sohasiga oid bo'lib, xabar, maqola, reportaj, ocherk va taqrizlarda namoyon bo'ladi. Shunday reportaj, ocherk va fe'leton ham badiiy, ham publisistik xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi bilan boshqalardan ajralib turadi. Publisistik matnlarda

publisistikaga xos siyosiy aktivlik, hozirjavoblik, o'tkir va ta'sirchan notiqlik, mantiqiy salobat, tashviqot va targ'ibot kabi xususiyatlar mavjud bo'ladi

Publistik matnga xos umumiy belgilarga muallif munosabatining oshkora va aniq ifodalash xususiyati ham kiradi. Muallif hayot va voqelikka aktiv munosabatda bo'ladi. Muallifning voqelikka bo'lgan munosabati faktlarni tanlashida, ularni o'z dunyoqarashi va estetik prinsipi asosida mantiqiy tahlil qilishda va nihoyat, tilning emotsional – ekspressiv vositalardan foydalanishida o'z ifodasini topadi. Har bir matn ma'lum bir mazmunni tashiydi va o'z xususiyatiga ko'ra turli axborotlarni yetkazadi. Publisist katta hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, dadil asoslar bilan tushuntirishi, isbotlashi bilan birga, o'quvchi yoki tinglovchini bunga ishonitirishi uning iroda va his – tuyg'ulariga ta'sir etishi lozim.¹

Publististik matnda nutqning abrazliligi barqaror xarakterga ega bo'ladi. Istiora, epitet, o'xshatish, mubolag'a, hikoya kabi his- tuyg'uga ta'sir etuvchi vositalar umumxalq tilidan olinadi. Publistik matn kitobiy - yozma nutqning sintaktik meyorlariga asoslanadi. Bayonning keng, mufassal bo'lishi publisistik matn uchun xos xususiyatlardan biridir. Unda leksikani tanlash mantiqiylik va emotsionallik talabiga ko'ra belgilanadi. Publisistik matnlarda voqelikdagi narsa va hodisalarning aniq va to'g'ri ifodalash vositasi bo'lgan terminalogik leksika ham, ekspressiv – stilistik ottenka bilan bog'liq bo'lgan leksika ham va hatto o'zining jonliligi, obrazliligi bilan farq qiluvchi iboralar ham ishlatiladi. Muallifning so'z tanlashi uning voqea va hodisalarga munosabatini, g'oyaviy nuqtai nazarini ham aks ettiradi.

Publististik matnning sintaktik tuzilishi ham o'ziga xos. Unda sodda gap turlari ham, qo'shma gapning o'zaro va , ham yoki teng bog'lovchilari yordamida birikkan bog'langan qo'shma gaplar turi ham qo'llaniladi.

Ilmiy matnlarda tabiat a ijtimoiy hayotdagi hodisalar aniq ta'riflanadi, tushuntiriladi. Bunday matnlar o'zining alohida maxsus vazifaga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ilmiy matnda har bir fan sohasiga oid atamalarining qo'llanilishi xarakterli xususiyat hisoblanadi. Masalan, tilshunoslikka oid ilmiy ishlarda lingvistikaga xos atamalar ko'plab qo'llaniladi. Bunday holatni boshqa sohalarga oid ishlarda ham ko'rish mumkin. Shuningdek, ilmiy matnlarda fanning turli sohalariga oid simvollar, belgilar, raqamlar ham ishlatiladi.

Tilshunos J. Lapasov ilmiy matnlarni ikki turga ajratadi: ilmiy matn va ilmiy ommabop matnlar.

Ilmiy matnda gap bo'laklari tarkibi abadiy til qoidasiga qat'iy amal qilingan holda ko'llanadi, lekin unda til qurilishi mantiqiy bog'liqlik va izchillikni talab etadi. Ilmiy – ommabop matnlarda amallar tizmasidan, ilmiy bayonlikdan qochiladi, bayon etilayotgan fikrning barchaga

¹ Shomaqudov A. , Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov X. O'zbek tili stilistikasi. –T., Oqituvchi, 1983. 27-bet.

barobar tushunilishini taminlash maqsadida tushunilishi qiyin bo'lgan amallar murakkab tushunchalar o'rniga aniq va batafsil tasvirlardan foydalaniladi.¹

Ilmiy matnning grammatik qurilishi mantiqiy bog'liklikni, izchillikni, sintaktik aniqlikni talab qiladi. Shuning uchun ularda ellipsis (birorta so'zning tushub qolishi) hodisasidan qochiladi.

Ilmiy matn emotsional va obrazli bo'yoqqa ham ega bo'ladi. Ammo ilmiy matndagi obrazlilik bilan badiiy matndagi obrazlilik farqlanadi. Ilmiy matnda obrazli iomlar faqat nominativ atash vazifasini, badiiy matnda esa o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsatish vazifasini bajaradi; Obrazlilik kategoriyasi agar ilmiy matnda nursiz holda ko'rinsa, badiiy matnda jonli tarzda namoyon bo'ladi.

Albatta, qat'iy ilmiy bayon ilmiy- ommabop bayondan ma'lum darajada farqlanadi. Bu tafovutlar bayon qilish vaziyati va bayon qilish materialidan kelib chiqadi. Ilmiy matnning barcha belgi- alomatlari ularning har birida o'ziga hos tarzda takrorlanadi. Masalan, ilmiy- ommabop matn biror fanga oid kitob, maqola va ma'ruzalar shu fanga masalalari bilan tanish bo'lmagan kishilar uchun mo'ljallanganda material ularga tushunarli shaklda bayon etiladi, fikr jonli va qiziqarli qilib tushuntiriladi, ilmiy terminlar kam qo'llaniladi, ular o'rniga aniq tasviriy materiallarga kengroq o'rin beriladi. Lekin ilmiy matn bilan ilmiy- ommabop matn o'rtasidagi bu hildagi tafovutlar ilmiy matn tushunchasining bir butunligiga, yahlitligiga putur yetkazmaydi.

Rasmiy yozishma va hujjatlar iqtisodiy, yuridik, diplomatik munosabatlarda, davlat idoralariga, savdoga doir o'zaro muomilalarda aloqa qilish uchun ishlatiladi. Rasmiy matnlarga davlatning dipla\omatik nomalar, hukumat qarorlari, ko'rsatmalar, buyruqlar, shartnomalar, rasmiy e'lonlar, rasmiy ish qog'ozlar; ariza, ishonch qog'ozi, tarjimai hol, tilhat, malumotnomalar, hisobot, e'lon kabilar kiradi.

Shu matnlarning tabiati va taraqqiyoti ikki yo'nalishda – tarixiy va uslubiy yo'nalishida o'rganiladi. Tarixiy-uslubiy yo'nalishida faqat nutq vositalarining tarkibiga emas, balki ularning turli matn tuplarida ishlatilish qonuniyati ham o'rganiladi. Rasmiy matnning qo'llanish doirasi kengligidan, hilma-hilligidan uning tarkibi ham turli-tumandir. Ular leksik-frazeologik, grammatik vositalarini tanlash va ishlatilish jihatidan bir-biridan farq qiladi. Masalan, qaror va bayonnomada takidlov qismi bilan qaror qiluv qismlarining o'rnini almashtirib bo'lmaydi. Bayon qilingan qismlar fikrlarining izchillik bilan uzviy bog'langan bo'lishiga alohida e'tibor qilindi.

Idoraviy yozishmalarga oid qog'ozlar, jumladan, ariza, malumotnoma, tilxat, tushuntirish xati, taklifnomalar qisqa va aniqligi bilan ajralib turadi. Tildagi muayyan qat'iy odat

¹ Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. –T., Oqitvchi, 1995. 5-bet.

tusiga kirib qolgan shakllar idoraviy yozishmalarga xos xususiyatlar sanaladi. Bu holat idoraviy ish qog'ozlarining vazifasi va xarakteridan kelib chiqadi. Nutqiy shtamplar matnga rasmiylik ottenkasini beradi. Rasmiy e'lon va xabarlar ham qisqa va sodda, ravon va tezda anglashilarli bo'lishini talab qiladi. Lekin ifodalanish jihatidan juda murakkab bo'lgan yuridik qonun va hujjatlarni ba'zan bir necha bor o'qishda tushunib olinadi. Zarur bo'lsa bir necha bor takror-takror o'qiladi, hatto huquq masalalari bo'yicha maslahat beruvchi mutahasislarga murojat qilinadi.

Konstitutsiyada har bir so'z, jumlaning, fikr va mulohazaning aniq va to'g'ri bo'lishi qat'iy talab qilinadi. Konstitutsiya o'z tuzilishiga ko'ra pragraf va punktlarga bo'lingan o'lishiga bilan, ijtimoiy-siyosiy, rasmiy-ma'muriy va abstrakt leksikaga oid so'z va terminlarning ko'p ishlatilishi bilan farqladadi.

Matnlarning har biri ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasi uchun hizmat qilishi va inson amaliy faoliyatining muayyan doirasiga mansubligi bilan farqlanadi. Shu sababli ular nutq faoliyatining ma'lum sohasiga taalluqli bo'ladi. Badiiy matn esa, inson amaliy faoliyati va xayotining hamma tomonlarini qamrab olishi, umumga taalluqliligi, barchaga barobarligi bilan ajralib turadi. Badiiy adabiyotda tasvir etilayotgan manbalar doirasi juda ham kengdir. Adabiyot turli kasb-hunar egalarining, har hil toifadagi kishilarning his-hayajonlarini tasvirlabgina qolmay, ularning ichki dunyosini, jamiyatdagi amaliyotini ham aks ettiradi.

Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallif ixtiyoriga ko'ra jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi.¹ Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo'lganidek, qat'iy mantiq, soddalik, tushunarlilik, normativlik kabi qonuniyatlarga to'la to'kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta'sirchanlik birinchi planga ko'tariladi. Ohangdor, jozibador, so'zlar ko'p qo'llaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikda uyg'un bir musiqa, ichki bir garmopiya sezilib turadi. Insonni ruhan to'lqinlantirish, yig'latish, kuldirish, halokat olamiga yetaklash, o'yga cho'mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o'rgatish kabi ko'plab imkoniyatnilarni o'zida mujassam qilgan. Badiiy matn, ma'lumki, badiiy uslub talablari, qoliplari asosida shakllantiriladi, shuning uchun unda poetic, romantik, tantavor ifoda shakllaridan keng foydalaniladi. So'zlarning tanlanilishi, gap tuzilish, leksik-semantik, ritmik-intonatsion birliklarning qo'llanilishi ham mazkur uslub talablaridan kelib chiqadi. Badiiy matnning lisoniy xususiyatlaridan eng muhumi ham shundaki, unda emotsional bo'yoqdor so'zlarga, sheva so'zlariga, tarihiy va arxaik so'zlarga, jargon va

¹ Yo'ldoshev M. Ko'rsatilgan asar. 35-bet.

argolarga, ko'chma ma'noli so'zlarga, manodosh shakldosh, o'xshash talaffuzli va zid ma'noli so'zlarga shuningdek ibora maqol-matal va aforazm kabi birliklarga keng o'rin beriladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har qanday matn o'ziga xos sistemadir. Buni o'zaro bir-birini taqozo qiladigan halqalar majmuiga o'xshatish mumkin; tovush (harf) lar-so'zlar-iboralar-gaplar-abzat-bo'lim-qism boblar.

Matn tarkibidagi bu uzvlarning o'zaro munosabati gapdagi so'zlarning bir-biri bilan bo'lgan munosabatiga o'xshaydi. Lekin matnning tarkiblanishi gapdagi tarkiblanishdan tubdan farq qiladi. Gapning sintaktik qolipi turg'unlashgan, asrlar davomida shakllangan, hamma uchun qulay foydalaniladigan va deyarli o'zgarmas bo'ladi. So'zlovchi yoki muallif o'z niyatiga ko'ra mazkur qoliplardan ixtiyoriy ravishda foydalanaveradi. Matndagi holat bundan boshqacharoq. Matnda so'zlar orasidagi munosabatdan ko'ra gaplar o'rtasidagi aloqadorlik muhim hisoblanadi. Agar gaplar aro ham mazmunan, ham shaklan aloqadorlik mavjud bo'lmasa, matn butunligi haqida ham gapirish mumkin emas. Badiiy matndagi kompozition butunlik tushunchasi makon va zamon muvofiqligi, ifoda va qolip uyg'unligi hamda motivation yaxlitlik tushunchalari bilan uzviy bog'liq. Badiiy matnni lisoniy taxlil qilish jarayonida bunday bog'liqlarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Voqelikni badiiy idrok etish va uni ifodalanishning asosiy vositasi badiiy uslub hisoblanadi. Badiiy uslub insonning fe'l-atvorini, uning ichki dunyosini, ruhiy holatlarini tabiatdagi turli voqea-hodisalarga tugal, butun murakkabligi bilan ifodalash imkoniyatini o'zida mujassam qilganligi bilan ham diqqatga sazovordir. Badiiy nutq uslubining eng harakterli hususiyati tasviriylik va ematsionallik hisoblanadi. Agar ilmiy uslub umumlashgan tushunchalarni qat'iy qolibga solingan, mahsus terminlar va formulalar bilan anglatlsa, badiiy uslub o'z zahirasiagi so'zlar yordamida inson qalbi va tabiatning eng nozik nuqtalariga tasvirlash imkoniyatiga ega. Badiiy uslubda muallif asarning estetik ta'sirini kuchaytirish maqsadida tilning tasviriy vositalaridan unumli va ijodiy foydalanadi, shuningdek, o'zi ham yangi so'z va ifoda shakllarini yaratadi. Shuning uchun bu uslubda yozuvchilar mavjud so'zlarni ishlatish bilangina cheklanib qolishmaydi. Mahoratli yozuvchilar uchun mavjud tildagi so'z zahirasi har doim cheklangan imkoniyat hisoblanadi. O'zlari yangidan-yangi individual so'z va iboralar ijod qilish paytida bo'lishadi. Badiiy nutqda til betakror qiyofa, fe'l-atvor, voqelikka mos manzara yaratishga, yuksak obrazlilikni namoyon qilisgha hizmat qiladi. Boshqa uslub materiallari badiiy nutqda muallif maqsadiga binoan erkin holda ishlatilishi mumkin. Badiiy uslubda har bir yozuvchi voqelikni badiiy idrok etish qo'lashi, ijodiy salohiyati, ifoda mahorati matnni kompozition shakllantirish tarziga bir biridan farqlanadi. Shunga ko'ra badiiy nutq uslubi

boshqalariga qaraganda keng imkoniyatlarga ega, o'ta qamrovdor va tasviriy ifoda vositakariga boy nutq ko'rinishi hisoblanadi. Badiiy matn badiiy nutq uslubida yaratiladi.

Ko'rinadiki, matn nutqiy jarayon mahsuli bo'lib, tugallangan, yozma shaklda mavjud bo'lgan, adabiy shakllangan, superfrazali butunliklardan tuzilgan, leksik, grammatik, logik, stilistik aloqalar bilan bog'langan, aniq maqsadli va pragmatik qurilmali nutqiy asar hisoblanadi. Badiiy matn o'zining leksik-grammatik xususiyatlari, badiiy ifodaviyligi bilan boshqa matn turlaridan ajralib turadi.

Adabiyotning so'z san'ati ekanligi haqidagi haqiqat juda qadim zamonlardan beri takrorlanib kelinadi. Demakki, adabiyotning bosh unsuri so'z, umuman, tildir. Adabiy asarning san'at darajasiga ko'tarila olishi uning lisoniy tarkibi va asar muallifining badiiy ifoda balog'atiga bog'liq ekanligi shubhasiz. Shunday ekan, har qanday adabiy asarning mohiyatini xolis baholamoq uchun, eng avvalo, uning lisoniy tarkibining o'ziga xosligi tahlil etilmog'i lozim.

Badiiy asar tilini o'rganishda ikki asosiy yo'nalish mavjud¹:

1.Lingvistik yo'nalish. Tilning muayyan tarixiy davrdagi holati, ayni holatga xos bo'lgan xususiyatlar, leksik, fonetik va grammatik o'zgachaliklar, tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli jihatlarini ilmiy tadqiq etish maqsadida o'sha davrga oid adabiy - badiiy asarlarning tili o'rganiladi. Bunda badiiy asarlar, yozma yodgorliklar tili ayni maqsaddagi tadqiqot uchun faqat material bo'lib xizmat qiladi. Til tarixini tasvirlash va tadqiq etishda bu yo'l eng qadimgi va mustahkam lingvistik an'ana sifatida yashab kelmoqda. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalishda juda ko'p tadqiqotlar yaratilgan.

2.Lingvopoetik yo'nalish. Badiiy asar tilini lingvopoetik yo'nalishda o'rganishning asosiy maqsadi esa bundan farq qiladi, albatta. Bu o'rinda masala tilning turli vazifalarga egaligiga borib taqaladi. Tilshunoslikka oid zamonaviy adabiyotlarda tilning, asosan, to'rt-besh vazifasi qayd etiladi. 1.Kommunikativ vazifa – tilning kishilar o'rtasida asosiy aloqa vositasi ekanligi. 2.Ekspressiv vazifa – turli fikr va tuyg'ularni ifodalash vazifasi. 3.Konstruktiv vazifa - fikrlarni shakllantirish, tartibga solish va ifoda tarzini belgilash vazifasi. 4.Akkumulyativ vazifa – ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash, saqlash vazifasi².

Badiiy asar tili tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda tilning ayni «ekspressiv vazifasi» atamasi bilan bir qatorda «tilning poetik vazifasi», «tilning badiiy vazifasi», «tilning estetik vazifasi» kabi atamalar ham qo'llanadi. Ammo shuni ham aytish kerakki, «tilning estetik vazifasi» atamasi filologik adabiyotlarda nisbatan ko'p ishlatiladi. Bunday bo'lishi ham

¹ Bu haqda qarang: Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати.-Тошкент, «Ўзбекистон», 1962.

² Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка.-Ленинград, 1975, с-44.

tabiiy, chunki estetik vazifa tushunchasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni ham o'z ichiga olgan holda ularni umumlashtira oladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur tushunchalarga qaraganda estetik vazifa tushunchasining qamrovi anchayin keng. Albatta, har qanday badiiy asarda tilning boshqa vazifalari ham reallashadi, ammo estetik vazifa birinchi planda turadi, yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham lingvistik adabiyotlarda bu holatga mana bu tarzda alohida urg'u beriladi: «Badiiy matn har qanday nobadiiy matndan farqli o'laroq alohida vazifani – kommunikativ vazifa bilan murakkab o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'luvchi va matnning o'ziga xos qurilishida hal qiluvchi omil hisoblanuvchi estetik vazifani bajaradi»¹. Bu o'rinda shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, tilning bu o'ziga xos estetik vazifasi namoyon bo'ladigan soha faqat badiiy asar matnidir, undan boshqa biron bir nutq ko'rinishida til o'zining bu vazifasini reallashtira olmaydi deb qarash ham asosli emas. Bu ma'noda tilshunos D. N. Shmelevning mana bu fikrlari diqqatga sazovor: «Tilning bu vazifasi (estetik vazifasi) faqat badiiy asardagina namoyon bo'lmaydi. Bizning diqqatimiz jumlaning shakliga, fikr qay tarzda ifodalanganligiga qaratilgan har onda biz aynan shu vazifaning harakati doirasiga kiramiz»².

Olimning alohida ta'kidlashicha, so'zlovchi o'z nutqining tashqi shakliga e'tibor bera boshlashi, lisoniy ifoda imkoniyatlarini baholashga o'tishi bilan tilning estetik vazifasi o'zining boshlang'ich ko'rinishida namoyon bo'ladi, ya'ni so'zlovchi nimani ifodalashnigina emas, balki ayni shu «nima»ni qanday ifodalashni ham muhim deb hisoblashidan boshlaboq tilning bu vazifasi ishga tushadi. Jonli so'zlashuv, kundalik muloqot jarayonidagi ko'pdan-ko'p o'tkir hazillar, latifanamo kulgilar, chuqur ma'noli so'z o'yinlari, kimlargadir taqlid qilishlar va hokazo holatlarda ham til belgisi, uning badiiy-ifoda imkoniyatlariga o'z-o'zidan diqqat qilinadiki, bunda tilning estetik vazifasi yaqqol namoyon bo'ladi.

Badiiy asar tilini o'rganishdagi ikkinchi, ya'ni lingvopoetik yo'nalish tilning xuddi shu estetik vazifasini tadqiq etishga qaratilgan. Aytish lozimki, tilning estetik vazifasining asosiy namoyon bo'lish o'rni badiiy asar matni ekan, bu vazifaning o'ziga xos xususiyatlarini faqat tilshunoslik yoki faqat adabiyotshunoslik doirasida o'rganish qiyin. Buning uchun adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, poetika kabi adabiyotshunoslik yo'nalishlari va lingvistik stilistika, til tarixi, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, grammatika kabi tilshunoslik yo'nalishlari bir-biri bilan hamkorlikda ish ko'rishi lozim. Tilning estetik vazifasi masalasi bu ikki yirik fan oralig'idagi murakkab muammodir.

¹ Гореликова М.И., Магомедова Д.М. Лингвистический анализ художественного текста.-Москва, «Русский язык», 1989, с-5.

² Шмелов Д.Н. Русский язык в его функциональных разновидностях.-Москва, «Наука», 1977, с-35.

Ushbu magistrlik dissertatsiyamizda yozuvchining lisoniy birliklardan foydalanish mahoratining badiiy matnda aks etish darajasini aniqlash, badiiy matn va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish vazifalarini bajarish maqsad qilindi.

Shuningdek, estetik hodisa sifatida badiiy asar tilini o'rganish asnosida muallifning individual uslubiy mahorati hamda uning badiiy asar yozishda til tizimi imkoniyatlaridan qay darajada foydalana olganligini aniqlashga ham e'tibor qaratish nazarda tutilgan. «Chunki badiiy asar tilini o'rganish uning faqat leksik-grammatik xususiyatlarini o'rganish bilan chegaralanmaydi, balki birinchi navbatda yozuvchining badiiy mahorati bilan bog'lanadi».¹

Bob bo'yicha xulosalar

1. Matn lingvistikasi, bir tomondan yangi, ikkinchi tomondan qadimiyligi shundaki, filologiya fani badiiy matnni o'rganish asnosida maydonga kelgan.

2. Matn tushunchasini ta'riflashda mutaxassislar o'rtasida yagona fikr yo'q. Ko'pchilik tilshunolar matnning yozma hamda og'zaki shaklda bo'lishini aytadilar. Ayni shu fikr ilmiy mantiqiy jihatdan to'la asosga ega va matnning mavjud mohiyatini to'g'ri aks ettiradi. Gap qoliplari tilda mavjud bo'lgani va bu qoliplarning bevosita realizatsiyasi nutqda voqe bo'lgani singari til sistemasida matn yaratishning ham umumiy qoidalari, qoliplari bor. Mazkur qoliplar asosida nutqda matn yaratiladi. Shuning uchun ham gap qanchalik ham til, ham nutq hodisasi bo'lsa, matn ham shunchalik ham til, ham nutq hodisasidir.

3. Har qanday butunlik kabi matn ham uni tarkib toptiruvchi muayyan birliklardan iborat bo'ladi. Matn tadqiqiga bag'ishlangan ishlarning akcariyatida matn birliklari haqida gap borganda, asosan, gap, murakkab sitnaktik butunlik va abzats sanab o'tiladi. Ammo M.Yo'ldoshev abzatsni matn birligi sifatida talqin qilish tegishli mantiqiy asosga ega emasligini aytadi. Supersintaktik birlik va gapnigina matnning asosiy birliklari deb hisoblash kerakligini aytadi.

4. Tildagi estetik vazifaning namoyon bo'lish darajasi matn tuzuvchining maqsadiga muvofiq holda farqli bo'ladi. Masalan, ilmiy matn muallifining asosiy e'tibori axborot berish, bildirish, tegishli qoidalarni ishlab chiqish va umumlashtirish, ilmiy yangiliklarni isbotlash,

¹ Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадий стиль.-Тошкент, «Фан», 1988, 92-бет.

dalillash, muayyan qonuniyatlardan tinglovchi yoki o'quvchini xabardor qilishga qaratilgan bo'lsa, badiiy matn ijodkorining maqsadi tinglovchi yoki o'quvchining his tuyg'ulariga ta'sir qilish, uning ruhiy olamini zabt etishdan iborat bo'ladi. Shuning uchun ham ilmiy matnda fikrning mantiqiy, aniq va ikki xil talqinga yo'l bermaydigan ifodasi taqozo etilsa, badiiy matnda fikrning obrazli, ko'p ma'noli ifodasi birinchi planda turadi.

5. Badiiy matnning tarkiblanishini tadqiq etishdagi muhim nuqtalardan biri intertekstuallik masalasidir. Badiiy matnga olib kiriladigan har sanday boshqa matn (maqol, matal, masal, ma'lum bir tarixiy voqea, rivoyat, afsona, ertak va b.) yoki uning unsuri asosiy matn mazmuni va lisoniy qurilishi bilan uyg'unlashib, yozuvchining estetik niyati ro'yobi uchun xizmat qiladi. Badiiy matnning intertekstualligi xilma xil shakllarda namoyon bo'ladi.

6. She'riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi, chunki she'rda o'ziga xos jozibador ohang bo'ladi. Bunga tovushlarni estetik qo'llash natijasida erishiladi. She'riyatda, asosan, alliteratsiya, assonans, geminatsiya kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Shuningdek, tovushlarni turli kombinatsiyalarda qo'llash (fonetik xiazm) orqali ham poetik effekt hosil qilinadi. Nasrda unlilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanadi.

7. Badiiy matndagi poetik aktuallashuv leksik vositalarda ham o'ziga xos tarzda kechadi va ayni paytda leksikaning poetik aktuallashuvi juda keng kuzatiladi. Zotan, badiiy matnni tushunish, uning lingvopoetik mohiyatini xolis baholash undagi so'z tahlilisiz aslo mumkin emas. Badiiy matndagi poetik aktuallashgan leksik vositalarning lingvopoetik qimmatini belgilashda sinonim, omonim, antonim, polisemantik, tarixiy va arxaik so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so'zlar, vulgar so'zlarga, ko'chimlarga alohida diqqatni qaratish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday so'z guruhleri badiiy matnda poetik aktuallashuvga nisbatan ko'proq moyil bo'ladi. Umuman leksik vositalarning aksariyat qismi badiiy matnda badiiy ma'no va mazmunning ifodalanishida ishtirok etadi va poetik jihatdan turli darajalarda aktuallashadi.

8. Sintaktik vositalar badiiy matnda integrativ munosabatlarning yuzaga kelishida faol ishtirok etishi barobarida ayni munosabatlar fonida xilma xil ma'no mazmunlarni ham ifodalay oladi. Badiiy matnda poetik aktuallashadigan sintaktik vositalarning asosiylari quyidagilardan iborat: sintaktik parallelizm, emotsional gap, ritorik so'roq gap, inversiya, ellipsis, parsellyatsiya, atov gaplar(segmentatsiya), gradatsiya, oksyumoron(g'ayriodatiy birikmalar), antiteza(sintaktik konstruksiyalarda), farqlash, o'xshatish, sukut, ulab ketish, korreksiya va boshqalardir.

II BOB. Sirojiddin Sayyid asarlarining fonopoetik va leksik poetik xususiyatlari

2.1. Sirojiddin Sayyid asarlarining fonopoetik xususiyatlari

Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga ham alohida e'tiborni qaratish zarur. She'riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she'rda o'ziga xos jozibador ohang bo'ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo'llash natijasida erishiladi. She'riyatda asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unlilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni

takrorlash, soʻzlarni notoʻgʻri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik taʼminlanadi. Tovushlarni uslubiy qoʻllash bilan bogʻliq qonuniyatlarni yozuvda «aynan» ifodalash imkoniyati cheklangan. Biroq, talaffuz va bayon muvofiqligiga fonografik vositalar yordamida erishish mumkin. Badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash oʻziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand boʻlish, xafa boʻlish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, soʻroq, taʼkid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qoʻllab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usulidan foydalanadilar. Masalan:

Undoshlarni birdan ortiq yozish. Aslida orfoepik meʼyor boʻyicha bir undosh talaffuz qilinishi kerak boʻlgan soʻzlar muayyan vaziyatlarda ekspressiya va estetik maqsad talabi bilan atayin qavatlab talaffuz qilinadi. Soʻzlovchining ichki ruhiyati (siqilish, xursandlik, karaxtlik, ikkilanish, achchigʻlanish, biror voqea-hodisadan qattiq taʼsirlanish kabilar) va maqsadini kitobxonga «aynan» yetkazish uchun yozuvchilar badiiy matnda bu holatni undoshlarni birdan ortiq yozish orqali ifodalashga harakat qiladilar. Bunda belgining meʼyordan ortiqqligi, harakatning davomiyligi yoki oniyliigi (bir onda roʻy berganligi), takroriyliigi, tovush kuchining balandligi yoki pastligi kabi maʼnolar ifodalangan boʻladi.

Rus va Yevropa filologik anʼanasida bu hodisa **geminatsiya** nomi bilan yuritiladi. «Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati»da mazkur hodisa «qoʻsh undoshlik – ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi» sifatida izohlanadi¹. «Oʻzbek tili tarixiy fonetikasi» oʻquv qoʻllanmasida esa bu hodisa «Qoʻshoqlanish» yoki «ikkilangan undosh» deb yuritiladi: «qoʻshoqlanish – undoshlarning choʻzilishi, ikkilanishi hodisasini fonetik oʻzgarishlar sirasida koʻrib chiqish oʻta shartlidir. Lekin bu hodisa faqat ikki unli orasidagi yakka undoshda sodir boʻla olishi bilan fonetik oʻzgarishlarga oʻxshaydi. Qoʻshoqlanish, asosan, ikki unli orasida kelgan k, q, t, l tovushlarida va faqat 2, 7, 8, 9, 30, 50 sanoq sonlarini nomlashda sodir boʻladi. Bu sonlarni bir undosh bilan ham, ikkilangan undosh bilan ham talaffuz etish mumkin boʻlgan. Sanoq sonlar nomidagi bu xil qoʻshoqlanish sabablari haligacha ochilmagan. Lekin katta, latta, yakka, yalla, chakki, ukki kabi soʻzlardagi ikkinchi t, l, k lar tarixan morfologik koʻrsatkich boʻlib, ulardagi qoʻshoqlanish singish (adaptatsiya) natijasidir degan fikr mavjud.»² Adham Abdullayev esa «undoshlarni

¹ Ҳожи́ев А. Ти́лшунослик терми́нларининг изоҳли луғати.-Тошкент, «ЎЗМЭ», 2002, 143-бет.

² Неъматов Х. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси.-Тошкент, «Ўқитувчи», 1992, 86-бет.

qavatlash» atamasini ishlatgan.¹ Undoshlarni qavatlab qo‘llash orqali badiiy asarda qahramon ruhiyatidagi xursandlik va xafalik holatlari tugal tasvirlashga erishiladi. Masalan,

Buncha ko‘p ko‘p oshiqu ovvoralarining,

Faqat taskin berar favvoralarining.

Ular bari yaqin ko‘ngillarimiga,

Ular o‘xshar opa- singillarimiga

(S.Sayyid. Toshkentga bag‘ishlovlar)

Ushbu parchada “ovvoralarining” so‘zidagi v undoshining takrori bir tomondan belgining me’yordan ortiqqligi ma’nosini ifodalasa, ikkinchi tomondan ikkinchi misradagi “favvoralarining” so‘ziga ohangdoshligini ta’minlash uchun xizmat qilgan.

Tilning asalidan qorilgan rozmi?

Lablar shakkaridan yaralgan rozmi?

Yana qaydin topgum bunday ovozni

Olamni aylansam charxpalak kabi?

Ushbu parchada keltirilgan “shakkar” so‘zidagi k undoshi ham qavatlangan bo‘lib, u ham badiiylilikni ta’minlash uchun, ya’ni ma’noni bo‘rttirish, kuchaytirish, takidlash uchun xizmat qilgan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, undoshlarning qavatlanishi alohida uslubiy vositadir. Duch kelgan tovushni qavatlab qo‘llab bo‘lmaganidek, so‘zda turli sabablar bilan yonma-yon kelgan barcha undoshlar ham lingvopoetik jihatdan ahamiyatga ega bo‘lavermaydi. Masalan:

Barcha bilan bir bo‘ling,

bepoyon taqdir bo‘ling,

Xalq uchun faqir bo‘ling,

Tenglikka yordam bering!

Kunduzdan hayratlaning,

yulduzdan hayratlaning

Urushdan nafratlaning,

Tinchlikka yordam bering! (S.Sayyid.”Tez yordam” mashinasida yozilgan she’r)

Mazkur parchadagi “tenglikka”(tenglik+ga), ”tinchlikka” (tinchlik+ga) so‘zlaridagi k tovushining qavatlanishi grammatik me’yor xisoblanadi, ya’ni jo‘nalish kelishigi shakli oxiri k bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilishi natijasida jarangsiz talaffuz qilingan va fonetik me’yorga ko‘ra shundayligicha yozilgan.

¹ Абдуллаев А. Ўша асар, 18-бет.

Alliteratsiya. Badiiy nutqning ohangdorligini va ta'sirchanligini ta'minlashda alliteratsiyaning o'rni beqiyosdir. She'riy nutqda misralar, undagi so'zlar hamda bo'g'inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishiga alliteratsiya deyiladi. Tovushlar zahiridagi musiqiylikka asoslangan bu usul qadimdan Sharq she'riyatida keng qo'llanilib kelingan. Ko'hna badiiyatshunoslik («ilmi bade'»)da alliteratsiya «tavzi' san'ati» deb yuritilgan. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida tadqiqotchilar muayyan tovushlarning poetik nutq uchun xoslanishi, tovushlarning poetik salmog'i, ularning turli hissiy assotsiatsiyalar bilan bog'lanishi masalalarini lingvostatistik metod asosida o'rganib, poetik fonetika yuzasidan qiziqarli fikrlarni o'rta tashlamoqdalar. Nutq tovushlari sistemasida ekspressivlikni ifodalash jihatidan unli tovushlarning imkoniyati katta ekanligi ham ta'kidlanmoqda. Biroq badiiy tafakkur ifodasi, bu ifodaning ta'sir quvvatini kuchaytirishda undoshlar asosida yuzaga keladigan alliteratsiyaning o'rni juda qadim zamonlardayoq anglab yetilganligini ham alohida qayd etish lozim. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar yuzasidan jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borgan N.Rahmonov o'zining «Kultegin yodnomasining poetikasi» nomli asarida alliteratsiya Kultegin yodnomasida ham badiiylilikni ta'minlovchi asosiy vositalardan biri ekanligini alohida ta'kidlagan. Badiiy matnda tovushlarning xilma xil kutilmagan kombinatsiyalari ham poetik aktuallashishi mumkin. Bunda tasvir o'ziga xos yangilik, ohorlilik va ohangdorlik kasb etadi, matn komponentlarining zich ham mazmunli, ham shakliy integrativligi badiiy matnning estetik butunlik sifatidagi mohiyatini yaqqol namoyon etadi. Shoir Sirojiddin Sayyid ham o'z she'rlarida alliteratsiyadan keng foydalangan. Masalan,

Kuyi ishqida, qarangkim,

andalib bo'ldi ko'ngil.

Andalib bo'ldi ko'ngil, ham

aldanib bo'ldi ko'ngil.

«Muhabbat devoniga» nomli she'ridan olingan mazkur parchada shoir andalib (bulbul) va aldanib so'zlarini betakror mahorat bilan qo'llagan, ularda n va l tovushlarining almashinuvi asosida poetik aktuallashuv juda kuchlidir. Yorning oshiqqa vafo qilmasligi, uni hamisha kuydirishi, uning aldashinging gul va bulbul obrazlari orqali tasvirlanishi badiiy adabiyotdagi ancha eski an'anadir, ammo bu o'rinda andalib va aldanib tarzidagi tamoman o'ziga xos bir qarshilantirish betakror oxorlilik kasb etganki, fonetik vositalarning poetik aktuallashuvi bois mazkur eski obrazlar yangilanganday bo'lgan. Shuningdek, mazkur so'zlarning aloqalantirilishi natijasida fonetik xiazm yuzaga kelgan.

Taxtani taxtadan tejab, tarashlab,

Paxtani paxtaga qo‘shib yashaymiz.
Zimdan mehrimizni o‘lchab, qarichlab,
Sirdan daryolarday jo‘shib yashaymiz.
 Yoki,
Kiyikning ko‘zlari yanglig‘
ko‘zingdan ketmagayman, yor,
Yashirsang ham necha yillar,
bo‘lib pinhona aytarman.
Ko‘ngilni sim siyoh tunlar
siyohidan giyoh aylab,
Siyoh zulflar aro ul sim –
siyoh rayhona aytarman. (S.Sayyid. Hofiz g‘azali)

Ushbu misollarda ham shoir ifodalilikni bo‘rtirish maqsadida alliteratsiyadan unumli foydalangan, natijada poetik aktuallashuv yuzaga kelgan.

Assonans. Badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsional – ekspressivlik bag‘ishlash maqsadida qo‘llaniladigan fonetik usullardan biri assonansdir. Adabiyotlarda assonans aynan yoki yaqin unilarning takrorlanib kelishidan hosil bo‘ladigan ohangdoshlik ekanligi bayon qilingan.

*Bir gul ko‘rdim naqshi **nigor** shaklinda,*
*Kamzullari bog‘u **bahor** shaklinda,*
*Qaro ko‘zi laylu **nahor** shaklinda,*
*Ikki zulfi mor, **ajdahor** shaklinda,*
*Bul ikkisi tun kun **bedor** shaklinda.* (S.Sayyid. Xorazmcha)

Ushbu parchada assonans qofiyadosh so‘zlar tarkibida kelib, she‘riy nutqqa ko‘tarinki ruh va o‘ziga xos musiqiylik baxsh etgan.

Alliteratsiya va assonans *saj‘* li nasrda alohida ahamiyat kasb etadi. *Saj‘* istilohi ilmiy adabiyotlarda nasrda ikki yoki undan ortiq so‘zning qofiyada yoxud vaznda (ba‘zan har ikkisida ham) kelishiga nisbatan ishlatilishi ta‘kidlanadi.¹

Demak, takror Sirojiddin Sayyid she‘rlarida yetakchi tasvir vositalaridan bo‘lib, fikrni lo‘nda va ixcham ifodalash, tasvirni yanada teranlashtirish, ta‘kidni kuchaytirish, kitobxon diqqatini jalb etish kabi turli maqsadlarda mohirlik bilan qo‘llanilgan.

2.2. Sirojiddin Sayyid asarlarining leksik poetik xususiyatlari

¹ Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ.-Тошкент, «Фан»,1978, 15-бет.

Shoirning antitezadan foydalanish mahorati. Tilda zid ma'noli so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir.

Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. Alisher Navoiy asarlari badiiyatini teran tadqiq etgan A. Rustamov bu haqda mana bunday deb yozadi: «Shoir uchun juda zarur bo'lgan san'atlardan biri tazoddir. Bu san'at yana «mutobaqa», «tiboq», «tatbiq», «muttazod», «ittizod» va «takofu» deb ham ataladi. Bu san'atda, badi'shunoslarning aytishicha, zid ma'noli so'zlardan foydalaniladi». Yevropa filologik an'anasida bu san'at «antiteza» deb yuritiladi.

Sirojiddin Sayyid she'rlarida zid ma'noli so'zlar asosida yuzaga keltiriladigan tazod, zidlantirish, qarshilantirish san'atining betakror namunalarini yaratgan. Badiiy adabiyot tilidagi antiteza usuli bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ma'nolarni beradigan so'zlarni, iboralarni bayonda yonma-yon qo'llash orqali obrazlilikni keltirib chiqarishga asoslangandir. She'riyatda antiteza badiiy nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qo'l keluvchi ifoda imkoniyatidir. Antiteza alohida tadqiqot ob'ekti sifatida G.Keldierova tomonidan chuqur tahlil etilgan. "O'zbek tili stilistikasi"da antiteza mantiqiy jihatdan qarama-qarshi bo'lgan ikki qutb (fikir, tushuncha, sezgi va obrazlar)ni qiyoslash ekanligi ko'rsatib o'tilgan.¹ Badiiy nutq, ayniqsa, she'riyatning ifodaliligi, ta'sirchanligini oshirishda antiteza juda keng ko'lamli ifoda imkoniyati hisoblanadi. Chunki antiteza orqali qahramon ruhiyatidagi kontrastlik, muallif his-tuyg'ulari bo'rttirib tasvirlanadi. Ilmiy manbalarda antiteza ikki xil asosga ko'ra, ya'ni lisoniy hamda kontekstual antonimlar orqali yuzaga kelishi ta'kidlanadi.² G.Keldiyorova bu fikrni yanada aniqroq ifodalab, antitezani vujudga keltiruvchi asos "... antonim so'zlardan, korrelyativ so'zlardan, inkor so'zshaklidan, oksyumoron ko'rinishidagi birliklardan, bir sinonimik qatordagi so'zlarni kontekstual holda ikkinchi bir sinonimik qatordagi so'zlarga ma'no jihatdan zidlash"dan iboratligini dallilab o'tadi.

She'riyatda sof antonimlardan ko'ra kontekstual antonimlarning ko'proq uchrashini e'tiborga olib, ushbu bo'limda asosiy e'tibor ana shunday matniy antitezaga qaratildi. (ba'zi manbalarda sof antonimlar har doim ham antiteza hosil qilavermasligi haqida aytiladi)

¹ Шомаксудов А. ва б. Ўзбек тили стилистикаси. - Т.: Ўқитувчи, 1983. - 234 б.

² Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. - Т.: Фан, 2007. - 55 б.

Sirojiddin Sayyid o'z she'rlarida antitezadan juda unumli foydalangan. Jumladan, u yer-osmon kontekstual antonimlarini juda ko'p qo'llagan. Shu bilan birga, shoir o'zbek tilining sinonimik imkoniyatlari kengligidan foydalangan holda yer-osmon kontekstual antonimik juftligining sinonimlarini keltirib, ularni ham zidlab qo'llashga harakat qilgan.

1. Baland etmak uchun nomin

*yaralmish yer bilan **osmon**,*

*Aning **pastliklarin** goh yer,*

*gahi **osmona** aytarman. (S.Sayyid. Hofiz g'azali)*

2. Nuqta ayla dilga aqiq tugmadin,

So'yla menga, ko'zlardagi mung nadin?

Qosh qaboqlar arosida na sir bor?

*Andin menga na **osmon** bor, na yer bor. (S.Sayyid)*

«Er» ma'nosining *tuproq* so'zi orqali berilishi o'zbek tilida an'anaviy hisoblanadi. Shuning uchun yuqorida keltirilgan antonimlar ham ana shu an'anaviylikni davom ettirgani holda o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi.

Keltirilgan misoldan ko'rinib turibdiki, shoir o'zbek tilining imkoniyatlaridan unumli foydalangani holda yer-osmon so'zlarining ma'nolaridagi qarshilantirish va boshqa nozik ma'noviy jihatlarni ham ilg'ay olgan.

Shoirning bir necha she'rlarida sutkaning yorug' va qorong'i qismini ifodalovchi kecha va kunduzning turli paytlari ham qarshilantirilishi bilan birga, o'ziga xos qo'llanishi bilan o'quvchi yodida qoladi:

1. Kecha- kunduz uzilmay

Qizib yotar bozoring.

Oqibatni valekin,

Mehrni bozor qilma (S.Sayyid. O'tinch)

2. Bul kecha *shomu sahar*siz kechadir,

*Ikki **oqshomu sahar** birlashdilar (S.Sayyid. Ikki dil g'azali)*

3. Qaro zulfing qaro qildi *kunimni tunlarimdan* ham,

*Kuyuk ko'ngul isi kelgay **tunim** ham **kunlarimdan** ham.*

Falak toshi agar yillar un etsa ustixonimni

Sening isming sado bergay unim ham, unlarimdan ham.

(S.Sayyid. Bu muhabbat bog'ida)

Keltirilgan misollarda *kecha-kunduz*, *shom-sahar*, *oqshom-sahar*, soʻzlari orqali antiteza hosil qilingan. Bunda quyidagi holatlarda diqqat qilish mumkin: «Oʻzbek tili antonimlarining izohli lugʻati»da *tun-kun*, *tun-kunduz*; *tong-kech*, *tong-kechkurun*, *tong-oqshom*, *tong- shom*; *kech*, *kechkurun*, *oqshom*, *shom* sinonimik qatori bilan *ertalab*, *erta bilan*, *tong* sinonimik qatori antonimlar sifatida tanlangan.

Yuqoridagi sheʼrlarda ham shoir sinonimiyadan unumli foydalanganligini taʼkidlab, quyidagi mulohazalarni keltirmoqchimiz:

Birinci parchadagi *kecha-kunduz* antonimlaridan hosil boʻlgan antiteza haqida: *kecha* «sutkaning kun botishidan kun chiqqungacha, oqshomdan tong otgungacha boʻlgan qismi» , *kunduz* «sutkaning yorugʻ payti»¹ ekanligini nazarda tutsak, bu yerda shoir ushbu ikki soʻz ishtirokida antitezaga emas, ketma-ketlikka koʻproq eʼtibor berayotganligini ilgʻash mumkin, yaʼni davomiy zamon (“doim”, “uzluksiz”) maʼnosi ifodalangan, qisman antiteza hosil qilishi mumkin. Bu yerda *kecha* va *kunduz*ning ramziy maʼno (yaʼni «qorongʻulik» va «yorugʻlik» maʼnosi)da qoʻllanishi ham mumkinligini eʼtiborga olsak, u holda toʻliq qarshilantirish hosil boʻladi.

Ikkinchi parchadagi *oqshom-sahar* antonim juftligida *shom* ham, *sahar* ham oʻz maʼnosida qoʻllanmay, *ikki dil* ramziy maʼnosida qullanib, shartli antitezani yuzaga keltirgan.

Uchinchi misolda esa, *kun*, *tun* soʻzlari bir oʻrinda sutkaning qorongʻu va yorugʻ qismi maʼnosida (yaʼni oʻz maʼnosida) qoʻllangan boʻlsa, ikkinchi oʻrinda “barcha kunlar” , “doim” maʼnosida qoʻllangan.

Yuqorida makon va vaqt bildiruvchi ayrim soʻzlar oʻrtasidagi antiteza tahlil qilib oʻtildi. Bunday antonimik juftliklarga juda koʻp misollar keltirish mumkin.

Hamma hikmat asli togʻu toshda ekan,

*Bu dunyoda **kim ochu kim oshga ekan.***

Kezib koʻrdim Eronlaru Olmonlarni,

Oʻz yeringda sheʼr oʻqimoq boshqa ekan.

(S.Sayyid. Sariosiyoda *sheʼriyat kechasi*)

Mazkur parchada *och* va *toʻq* antonimlari keltirilgan boʻlib, “toʻq” maʼnosini ifodalash uchun shoir “oshga ekan” birikmasidan mahorat bilan foydalangan. Natijada shartli qarshilantirish (kontekstual antonim) yuzaga kelgan. Odatda, kontekstual antonimlardan badiiy asarda tasvirning taʼsirchanligini oshirish maqsadida foydalaniladi. Yuqoridagi parchada ham ayni ana shu maqsadni yuzaga chiqarish uchun xizmat qilgan.

Falak bizni balolardan asradimi?

¹ ЎТЎЛ, II. 202 6.

Yulduzlardan boychechaklar sachradimi?

Bir kurtakka almashdim bir hasratimni,

Olam eski, lekin o'ngu so'lim yangi (S.Sayyid. Navro'z qo'shig'i)

Ushbu parchada “eski yangi”, “o'ng so'l” “olam o'ngu so'l” antonimlari keltirilgan. Ulardan “eski yangi”, “o'ng so'l” juftliklari sof antonimlar bo'lib, “olam” va “o'ngu so'l” juftligi kontekstual antonimdir. “O'ngu so'l” ko'chma ma'noda qo'llanib, “olam”ga shartli ravishda shu jumla tarkibida bir martalik antonim bo'lib kelgan va bu orqali antiteza hosil qilingan.

Insonning turli ruhiy holatlarini anglatuvchi antonimlarni shoir she'rlarida ko'plab uchratish mumkin. Bu tabiiy, chunki she'riyatning asosiy maqsadi ham insonning ruhiyatini so'z orqali berishdir. Quyidagi misollarni ko'rib chiqsak.

G'uncha labi g'unchalarni so'ldirur,

Asli g'uncha deganlari shuldurur.

*Kulgichlari **kuydurur** ham **kuldurur**,*

“Galdingizmi” deyishlari o'ldirur,

Qurbonlari qator qator shaklinda (S.Sayyid. Xorazmcha)

Aslida “kuydirmoq” so'zi biror narsani oxirigacha yondirib tugatmoq, kul qilmoq degan ma'noni ifodalaydi. Mazkur parchada ushbu so'z boshqa ma'nosi bilan, ya'ni narsa buyumni emas, “yorni ishq o'tida kuydirmoq” ma'nosi bilan ishtirok etgan. Ana shu ko'chma ma'nosi bilan “kuldurur” so'ziga shartli ravishda antonimlikni hosil qilgan (leksik antonimlikni kuzatish mumkin). Bu ham badiiy matn aktualligini ko'rsatuvchi vositalardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Umuman, Sirojiddin Sayyid she'rlarida insonning xursandchilik va xafalik holatini anglatuvchi so'zlar ko'p o'rinlarda qarshilantirib qo'llangan. G.Muhammadjonovanning fikricha, o'quvchida mushohada yuritish, voqelik haqida kuchli taassurot uyg'otish maqsadida qo'llangan oksyumoronlar «zid ma'noli so'zlar vositasida qarama-qarshi holat, ruhiy kengliklarni ochib beradi».¹

Sirojiddin Sayyid o'z she'rlarida emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklardan keng foydalangan va ular adibning badiiy-estetik maqsadini amalga oshirish uchun muhim darajada xizmat qilgan.

Ma'nodosh so'zlar. Ma'nodosh so'zlar tilning lug'aviy jihatdan boylik darajasini ko'rsatib beruvchi o'ziga xos vositadir. Tilda ma'nodosh so'zlarning ko'p bo'lishi tilning

¹ Мухаммаджонова Г. 80- йиллар охири 90- йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи.: Филол. фанлари номзоди дис. автореф. - Т., 2003. -8 б.

estetik vazifasini yanada to'liq bajara olishini osonlashtiradi. Bu juda qadim zamonlardan beri anglangan, idrok etilgan va o'rganilgan hodisadir. O'zbek tili ma'nodosh so'zlarga juda boy. Yozuvchilar tilimizdagi ma'nodosh so'zlar ichidan tasvir maqsadiga eng munosibini topib ular orqali qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyekting eng kichik qirralarigacha ifodalashga harakat qiladilar. Badiiy matndagi ma'nodosh so'zlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e'tiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlashi bo'lsa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda qo'llashi masalasidir.

Tilshunoslikda ma'nodoshlikning, asosan, uch turi farqlanadi, ya'ni: 1) leksik ma'nodoshlik; 2) frazeologik ma'nodoshlik; 3) leksik-frazeologik ma'nodoshlik¹.

Leksik ma'nodoshlikdan bir necha maqsadlarda foydalaniladi. Masalan, shoir Sirojiddin Sayyid she'rlaridagi ma'nodoshlik quyidagi maqsadlar uchun qo'llanilgan:

1. Til birliklarining takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag'alligi va rangsizligidan qochish uchun: *To 'karda bag 'rini bog 'lar samarsiz ketmagay bir barg, Samar top, deb necha **bog'u** necha **bo'stona** aytarman*(S.Sayyid. Hofiz g'azali).

2. Tasvir obyektiga e'tiborni jalb qilish uchun: *Jomi baxtim erdi doim goh **qurum**, goh **quyqaliq**, Nozanin ko 'rdim u kun, bir nozaninkim uyquliq* (Sirojiddin Sayyid. Uyquliq baxt).

3. Ijobiy belgining darajama-daraja ortib borishini aniq ifodalash uchun: *Topgaymiz dunyoda **ahdu paymonni**,*

Topgaymiz ushalgan orzu armonni.

Ko 'ngil murodiga yetgaymiz albat,

*Tpgaymiz shubhasiz ul **yori jonni**.*

*Topgaymiz bir kuni **shuhrat shonni** ham,*

*Martabalar bergan **davru davronni**.*

*Ko 'rkam yuzlarida **na hasrat, na g'am**,*

*Xushnud topgaydirmiz **do'stu yoronni**.*

Topgaymiz eng yorug ' lahzalarni biz,

Baxtin topgusimiz qizu o 'g 'lonni.

Nurlarga chulg 'angay xonadonimiz,

Topgaymiz eng baland qasru ayvonni.

Neki saodat bor topgaymiz, faqat...

Faqat topolmaymiz Shavkat Rahmonni. (S,Sayyid. Shoir xotirasiga)

¹ Аскарова М., Қосимова М., Жамолхонов Х. Ўзбек тили.-Тошкент, «Ўқитувчи», 1989, 29-бет.

4. Belgining kuchayib borishini ifodalash uchun:

Garchi tilsiz, zabonsiz,

Xomush beozordaylar.

Bor dardu hijronimdan

Ular xabardordaylar.

Onamning ko‘z yoshidan

Bo‘lsa bolishlari nam.

Nazarimda kechalar

Yig‘lar kalishlari ham. (S.Sayyid. Onamning kalishlari)

Paronim so‘zlar

Paronimlar deb fonetik tarkibi boshqa-boshqa, talaffuzdagina o‘xshash, yaqin bo‘lib qolgan so‘zlarga aytiladi. *Abzal* (asli afzor-asbob, egar-jabduq) – *afzal* (fazl so‘zining orttirma darajasi), *xalos* (ozod bo‘lish) – *xolos* (faqat), *xush* (yaxshi, yoqimli) – *hush* (insonning sezish, idrok etish qobiliyati). «Paronimlarga asoslangan uslubiy figura paronomaziya deb yuritiladi. Badiiy adabiyotda paronomaziya ifodalilik, ohangdorlikka erishish, komik effekt yaratish, so‘z o‘yini hosil qilish kabi maqsadlarda foydalaniladi.»¹ Badiiy adabiyotda o‘xshash so‘z (paronim)lar qahramonlar nutqini individuallashtirish, ularning ma’naviy hamda lisoniy saviyasini ko‘rsatish uchun ham ishlatiladi. Said Ahmad o‘zining «Sinovchi uchuvchi» deb nomlangan hajviyasida ham o‘xshash talaffuzli so‘zlar vositasida paronomaziya yuzaga keltirgan: *Har bir korxonaning mahsuloti sifatini aniqlaydigan o‘z sinovchilari bo‘ladi. Masalan: yangi samolyotni birinchi uchirib beradigan uchuvchini sinovchi-uchuvchi deyдилar... Mana, qarshimizda turgan barvasta qomatli, qarashi burgut nigohini eslatadigan, butun vujudidan kuch-g‘ayrat, sadoqat, vafo sezilib turgan kishi mana shu zavodning sinovchi-ichuvchisidir...*

Birinchi parchadagi paronomaziya ikkita o‘xshash so‘zning qahramon tarafidan farqlanmasligi, ya’ni ikkita alohida so‘z ma’nolarining qorishtirilishi natijasida kulgili holat yuzaga kelgan. Ikkinchi parchadagi paronomaziya esa qahramon kulgili vaziyatni yuzaga keltirish uchun atayin o‘xshash talaffuzli yangi konstruksiyani hosil qiladi.

Shunday misollarni Sirojiddin Sayyid she’rlarida ham ko‘plab uchratish mumkin. Masalan:

Evrilsa gar necha falak, necha davru zamon,

Shoir shoir bo‘lib qolar, cho‘pon bo‘lolmagay.

¹ Хожиев А. Ўша асар, 80-бет.

Matoh qilsalar yuz Sirojiddin Sayid she'ridan,

*Ustoz Erkin Vohidga bir **chopon** bo'lolmagay. (S.Sayyid. Izhor)*

Mazkur parchada cho'pon//chopon paronimlaridan foydalanilgan bo'lib, ular shoirning asarda ifodalilik, ohangdorlikka erishish maqsadini amalga oshirish vositalari bo'lib xizmat qilmoqda.

Shoir she'rlarida so'z ko'chma ma'nosining lingvopoetik imkoniyatlari. O'zbek tilshunosligida ko'chimlar leksik ma'no taraqqiyot yo'llaridan biri bo'lib, so'zning uzual yoki okkazional ma'no doirasida hosil qilinadi. Ko'chimlar badiiy matn doirasida talqin qilinganda ko'proq ularning mohiyatiga (ob'ektivlikdan chekinmagan holda) sub'ektivlik nuqtai nazaridan yondashish maqsadga muvofiq. Chunki yozuvchi (sub'ekt)ning ob'ektga shaxsiy munosabati, dunyoqarashi, baholashdan kutilgan badiiy niyati va maqsadi ko'chimlarda o'z in'ikosini topadi. So'zlarning ko'p ma'noliligi hodisasi tillarning deyarli barchasi uchun xosdir. Tilning boyligini belgilashda faqat so'zlarning ko'p yoki kamligi emas, balki bir so'z ma'nolarining ko'p yoki kamligi ham hal qiluvchi omillardandir.

So'zlarning ko'p ma'noliligi hodisasini monografik tadqiq etgan tilshunos M. Mirtojiev bu munosabat bilan quyidagilarni yozadi: «Ma'lum tilda polisemantik so'zlar vujudga kelish imkoniyatlarining ko'p bo'lishi va tilda polisemiyaning nihoyatda taraqqiy etganligi fikr ayirboshlash uchun hech mahal qiyinchilik tug'dirmaydi. Uning taraqqiyoti ob'ektiv mavjudotni o'zaro bog'liq holda anglash, ularni qiyosiy o'rganish, taraqqiyotlarning tilda aks etib turishi kabilar natijasi bo'ladi. Ya'ni polisemiya sivilizatsiya belgisidir. Qaysi xalqda fan, texnika, madaniyat, san'at taraqqiy etgan bo'lsa, o'sha xalq ob'ektiv borliqning o'zaro aloqasini shuncha ko'proq ko'radi, ularni bir-biriga ko'proq qiyos etadi va bular tilda ko'proq o'z aksini topadi». Tadqiqotchi ayni paytda yana quyidagilarni ta'kidlaydi: «...Biz yana o'zbek tilini ham semantik salmog'i og'ir tillardan biri sifatida qayd etmoqchimiz. Bunga o'zbek tiliga oid lug'atlarni varaklash va boshqa lug'atlarga solishtirish sabab bo'ldi. Bundan tashqari, o'zbek badiiy adabiyotida so'z o'yini, askiya va tuyuq kabi janrlarning boshqa til badiiy adabietlardagiga nisbatan keng ekani ham mazkur fikrimizni tasdiqlaydi» (Mirtojiev M. Uzbek tilida polisemiya, 1975).

Ko'rinadiki, ko'p ma'nolilik har qanday tildagi mutlaqo qonuniy hodisa bo'lib, uning mavjudligi nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashadi. Matnga, kontekstga ko'ra ko'p ma'noli so'z muayyan bir nutqda o'zining konkret bir ma'nosi bilan reallashadi, ya'ni uning ko'p ma'noliligi fikrning yanglish anglanishiga olib kelmaydi. Aksincha, ayniqsa, badiiy nutqda ko'p ma'-nolilik o'ziga xos ifodalilik vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. D. N. Shmelev o'zining «So'z va obraz» kitobida shunday bir qiziqarli faktni L.

Kassil kitobidan keltiradi: Mayakovskiyga shunday dashnom beradilar: «Sizning she'rlaringiz odamni to'qinlantirmaydi, isitmaydi, ulardagi tuyg'ular odamga yuqmaydi». Shunda Mayakovskiy quyidagicha javob beradi: «Mening she'rlarim dengiz ham emas, pechka ham emas, vabo ham emas!» Ko'rinib turganiday, bunda ko'p ma'noli so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari ataylab qorishtirilgan. Shu tarzda so'z o'yiniga asoslangan o'tkir javob yuzaga kelgan.

Sirojiddin Sayyid ham o'z she'rlarida ko'p ma'nolilik hodisasining bu kabi xususiyatlaridan unumli foydalangan.

Ko'chimlar deyilganda «adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatilishi»¹ nazarda tutiladi. So'z ma'nosining ko'chish jarayonlari turli ko'rinishlarda voqe bo'ladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o'zbek tilshunosligida ancha batafsil o'rganilgan. Ko'chimlar deyarli ko'pchilik adabiyotlarda «troplar» atamasi ostida o'rganilgan. «Badiiy tekstning lingvistik tahlili» qo'llanmasida ko'chimlar quyidagicha tasnif qilingan: «1. So'z ma'nosining miqdoriy ko'chishiga asoslangan troplar: a) giperbola; b) meyozis. 2. So'z ma'nosining sifatiy ko'chishiga asoslangan troplar: a) metafora; b) metonimiya; v) ironiya.» qolgan tasviriy vositalar mazkur ko'chimlarning ko'rinishi sifatida beriladi: «simvol, jonlantirish, epitet, apastrofa – metaforaning; perifraza, sinekdoxa, allegoriya, epitet – metonimiyaning; antifraza, sarkazm – ironiyaning; litota – meyozisning ko'rinishlaridir»² Badiiy matnni lingvopoetik tahlilga tortganda ko'chimlar deb ataladigan tasviriy vositalarning deyarli barchasining asosida o'xshatish, chog'ishtirishdan iborat mantiqiy tushuncha yotganligini unutmashlik kerak.

Metafora. Narsa-buyum, voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishiga metafora deyiladi. Metafora ko'chma ma'no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo'lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda «istiora» deb yuritilgan. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: **lingvistik metafora** va **xususiy-muallif metaforalari**. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. «Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo'yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv

¹ Шомаксудов А. ва б. Ўша асар, 236 - бет.

² Ўринбоев Б. ва б. Ўша асар, 29-30-бет.

munosabat aks etmaydi».¹ Faqatgina ma'lum bir so'zning ma'no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi. Masalan: *odamning oyog'i – stolning oyog'i, odamning ko'zi – uzukning ko'zi, ko'ylakning etagi – tog'ning etagi* kabi. Xususiy-muallif metaforalari esa yozuvchining estetik maqsadi, ya'ni borliqni subyektiv munosabatini qo'shib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan bo'yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyqularini ta'sirchan, yorqin bo'yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Xususiy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma'no mavjud bo'ladi. «Metafora orqali ma'no ko'chishida konnotativ ma'no yorqinroq aks etadi. Masalan, ot, eshak, qo'y, it, bo'ri, tulki, yo'lbars, boyo'g'li, musicha, burgut, lochin, qaldirqoch, bulbul kabi hayvon va qushlarning nomlari bo'lgan leksemalar mavjudki, bu so'zlar o'z ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'noda juda keng qo'llanadi. Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qo'yning yuvoshligi, itning vafodorligi, mushukning epchilligi, tulkining ayyorligi, burgutning changallashdagi kuchliligi, lochinning ko'zi o'tkirligi kabi tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko'chiriladi, natijada konnotativ ma'no yuzaga keladi hamda matnning ta'sirchanligi oshadi.»² Metafora bilan o'xshatish konstruktsiyaning o'zaro farqi haqida tilshunoslarimiz o'zlarining fikrlarini aytib o'tishgan. Ularda asosan quyidagi farqlar sanab o'tiladi: 1. O'xshatishda so'zlar o'z ma'nosi bilan ishtirok etadi. Metaforada so'zlar doimo ko'chma ma'noda bo'ladi. 2. O'xshatishda ikki komponent - o'xshatiluvchi obyekt va o'xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo'ladi. 3. O'xshatishlarda kengayish imkoniyati ko'p, bir gap hatto abzas darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa so'z yoki so'z birikmasidan iborat bo'ladi. 4. O'xshatishda maxsus ko'rsatkichlar bo'ladi: *-dek, -day, -simon, -larcha, kabi, singari, o'xshamoq* va boshqalar. Metaforalarda bunday ko'rsatkichlar bo'lmaydi. Buni quyidagi misoldan ham ko'rish mumkin: *Karim tulkiday ayyor odam*. O'xshatish konstruktsiya. Bunda **Karim** – o'xshatish subyekti, **tulki**-o'xshatish etaloni, **ayyor**-o'xshatish asosi, **-day** – o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi. Bu to'liq o'xshatish. *Karim – tulki*. Bu qisqargan o'xshatish, chunki gapda o'xshatish asosi (qaysi xususiyati o'xshashligi) va ko'rsatkichi ifodalanmagan. *Voy, tulki-yey...* (Karimga nisbatan ishlatilmoqda) Bu metafora hisoblanadi. Chunki, Karimning ayyorligi obrazli tarzda ifodalanyapti, butunlay qayta nomlanyapti. Metaforalarga misollar:

1. *Sog'edi – xudo edi,*

¹ Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш.-Тошкент, 1976, 13-бет.

² Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти.-Тошкент, НД, 12-бет.

Endi – chi, Xudo deydi,

Oq xalatli tangrilar,

Otamga yordam bering! (“Tez yordam” mashinasida yozilgan she’r)

Mazkur misolda “oq xalatli tangrilar” iborasi orqali “vrach”larga ishora qilingan. Vrachlarning odamlarga “tibbiy yordam” berishi va Tangrining hamma narsaga qodir ekanligi o’rtasida “yordam kutish” nuqtai nazaridan aloqadorlik mavjud bo’lib, ana shu aloqadorlik asosida so’z qayta nomlangan, ya’ni *doktorlar* emas, *oq xalatli tangrilar* deb yuritilgan.

*O‘z nomin ham ota nomin **tog‘lar etgan,***

Yigitchalik bo‘lmaganim alam qilar. (Armon)

Inson bo‘lib bu dunyoning

bozorini ko‘rdingmi?

Zarlari ham zorlariyu

ozorini ko‘rdingmi?(Kelib ketmoq)

Ko‘ngillarga qurdingmi bir

ko‘prik yoki imorat?

Qurganlaring o‘zingniki

Qurmaganing gumondir. (Kelib ketmoq)

Keltirilgan misollarda ham ma’no ko‘chishini kuzatish mumkin. Birinchi misolda ulug‘lamoq so‘zi *tog‘ etmoq* bilan; tashvish so‘zi bozor so‘zi bilan; birovning ko‘nglini olmoq iborasi *ko‘ngillarga ko‘prik yoki imorat qurmoq* iborasi bilan qayta nomlangan. Bu esa she’riy matnda ekspressivlikni ta’minlash, ta’sirni kuchaytirish uchun xizmat qilgan.

Ayrim adabiyotlarda metaforalarning mazmunijihatdan uch turi mavjudligi aytiladi: **odatiy**, **jonlantirish** va **sinestetik** metaforalar.¹ Yuqorida ko‘rib o‘tilgan metaforalarning barchasi, asosan, odatiy metaforalardir. **Jonlantirish** badiiy nutqqa obrazlilik baxsh etuvchi muhim vositalardan biridir. «Badiiy san’atlar» kitobi mualliflari bu haqda shunday yozadilar: «Jonlantirish – istioraning bir ko‘rinishi. Jonlantirish odamlarga xos bo‘lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko‘chirish orqali paydo bo‘ladigan tasvir usulidir».² «O‘zbek tili stilistikasi»da ham «kishilarning harakatlari, his

¹ Миртаджиев М. Переносные значения и их манифестация в узбекском языке.-Ташкент, АДД, 1989, с-13.

² Бобоев Т., Бобоева З. Ўша асар, 11-бет.

tuyg'ulari, so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chirilishi»ga¹ jonlantirish deyilishi ta'kidlanadi. Mumtoz adabiyotimizda jonlantirishning ikki turi farqlangan: 1. **Tashxis** – shaxslashtirish, jonsiz narsalarni insonlarday qilib tasvirlash. She'riyatda jonlantirishdan voqelikni obrazli tasvirlash maqsadida foydalaniladi. Tasvir obyektiga kitobxonni yaqinlashtirish, voqelikning anglanishini osonlantirish va quruq-rangsiz ifodadan qochish uchun ham mazkur usulga murojaat qilinadi. Quyidagi she'riy parchada muallif «barg»ni jonlantirish orqali kitobxonning tasvirlanayotgan voqelikka munosabatini faollashtiradi:

*Kuyga to'lib ketdi toshu devorlar,
So'lg'in so'lg'in sog'ayadi bemorlar.
Faqat bir barg, chirigan **bir barg faqat**
Aylar menga munglug'gina nasihat. (S.Sayyid. Bahor)*

Yoxud jonsiz narsaga insonga murojaat qilgandek munosabatda bo'lish ham jonlantirishning bir ko'rinishi hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda bu hodisa **apastrofa** deb yuritiladi. Bunda narsa – buyum jonlantirilmaydi, faqat jonli deb tasavvur qilinadi. Bu usuldan qahramonning hech kimga aytolmagan ichki dardlarini, sirlarini oshkor qilishda foydalaniladi. Masalan:

*Payvasta qoshlardan o'pichlab olib,
Hayolangunicha uzun kipriklar;
Bir tomchi atirdan is taralguncha,
Bahor ko'ngillarga solar ko'priklar. (S.Sayyid)*

Sinestetik metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushunchaga o'xshatiladi, yaqinlashtiriladi va shu asosda ko'chma ma'no yuzaga keladi. Masalan: *Shirin tabassum, shirin gap, shirin uy; yengil tabassum, yengil nigoh, yengil qadam, og'ir tush, og'ir gap, og'ir masala* kabi. Bu misollarda keltirilgan shirin, yengil, og'ir sifatlarida sinestetik metafora sodir bo'lgan. Maza-ta'm ma'nosini bildiruvchi «shirin» va o'lchovni ifodalovchi «yengil» so'zlari «yoqimli» ma'nosida, «og'ir» so'zi esa «yoqimsiz» ma'nosida kelgan.

Metonimiya deb voqea-hodisa, narsa-buyumlar o'rtasidagi o'zaro yaqinlik va bog'liqlik asosida ma'no ko'chishiga aytiladi. Metonimiya ham qiyosga asoslanadi. Faqat «metaforada bir-biriga o'xshash predmetlarning belgilari qiyoslansa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo, umuman

¹ Шомаксудов А. ва б. Ўша асар, 245-бет.

bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga o'xshamagan) predmetlarning belgilari chog'ishtiriladi».¹
Masalan:

Har ko'ngilga bir yangi kuy, qo'shiq bersin,

Iymon insof, diyonatni qo'shib bersin.

*Har bir uyga eng avval bir **bashik** bersin,*

Hech bir uyga ko'rsatmasin o'lim yangi.

(S.Sayyid. Navro'z qo'shig'i)

Ushbu misolda “*bashik*” so'zi orqali “*farzand*” ma'nosi ifodalangan. “*Beshik*” predmet, “*farzand*” esa shaxsni ifodalaydi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ular o'rtasida aloqadorlik mavjud, ya'ni beshik bolalar yotishi uchun mo'ljallangan predmetni bildiradi. Ana shu aloqadorlik “*farzand*”ni “*bashik*” bilan qayta nomlanishi uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Uzilmas bu yurtidan iymon torlari,

*Toki hikmat so'ylar **Olloyorlari** (S.Sayyid. Mangu nomlar)*

Grammatikalarda berilishicha, kishi atoqli otlariga lar ko'plik shakli qo'shilganda ko'plik emas, o'xshashlik ma'nosi ifodalanadi. Yuqoridagi misolda ham “*Olloyorlari*” so'zi orqali bir nechta Olloyor emas, “*Olloyorga o'xshash odamlar*” ma'nosi ifodalanmoqda.

*“**Tiko**” mingan sanamlar,*

Husningiz rom etibdi.

Bir zum to'xtab qaranglar:

Bahor o'tib ketibdi

Mazkur parchada “*tiko*” so'zi orqali shu rusmdagi “*mashina*” so'zi qayta nomlangan. Bunday misollarni Sirojiddin Sayyid she'rlarida juda ko'p uchratish mumkin. Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, badiiy matnda leksik sathdagi ko'chim (trop)lar nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lib, ular badiiy mazmunni ifodalashda eng faol vositalardir. Ko'chimlarning barcha turlarining ham yuzaga kelishida o'xshatish, chog'ishtirishdan iborat mantiqiy tushuncha hal qiluvchi omildir. Bunday o'xshatish va chog'ishtirish o'z o'zidan badiiy obrazlarning yorqin va aniq ifoda topishiga imkon tug'diradi. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan, ko'chimlarning qayd etilgan barcha turlari badiiy matnda bir xil lingvopoetik qimmatga ega bo'lmaydi yoki badiiy mazmun ifodasi birday faol ishtirok etmaydi.

¹ Шомаксудов А. ва б. Ўша асар, 237-бет.

Bob bo'yicha xulosalar

1. Badiiy matnning shakllanishida nafaqat adabiy til, balki umumxalq tilining barcha vositalari ijodkor badiiy niyatini ro'yobga chiqarish maqsadida erkin ishtirok etadi. Ammo bunday badiiy matndagi til vositalarining barchasi bab baravar, bir xil estetik maqomda deb bo'lmaydi. Badiiy matnda muayyan til birliklari, til vositalari alohida poetik qimmat kasb etadi, boshqalari esa poetik jihatdan nisbatan passiv xarakterda bo'ladi.

2. She'riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she'rda o'ziga xos jozibador ohang bo'ladi. Bunga tovushlarni estetik qo'llash natijasida erishiladi. She'riyatda, asosan, alliteratsiya, assonans, geminatsiya kabi fonetik usullardan foydalaniladiki, ayni shu usullar Sirojiddin Sayyid she'rlarida keng qo'llanilgan bo'lib, ular badiiy matnning ta'sirchanligini oshiruvchi vositalar bo'lib xizmat qilgan. Shoir tovush takroridan foydalanar ekan, o'zni bilan ularni badiiy maqsad sari yo'naltira olgan. Natijada birgina takrorning o'zi shoir yetkazmoqchi bo'lgan fikrning ixcham, ta'sirchan shakli bo'lib xizmat qilgan.

3. Badiiy matnagi poetik aktuallashuv leksik vositalarda ham o'ziga xos tarzda kechadi va ayni paytda leksikaning poetik aktuallashuvi juda keng kuzatiladi. Zero, badiiy matnni tushunish, uning lingvopoetik mohiyatini holis baholash undagi so'z tahlilisiz aslo mumkin emas. Sirojiddin Sayyid she'rlarida sinonim, omonim, antonim, polisemantik so'zlarga keng murojaat etilgan bo'lib, ular badiiy matndagi poetik aktuallashgan leksik vositalarning lingvopoetik qimmatini belgilashda muhim o'rin tutgan.

III BOB. Sirojiddin Sayyid asarlarining sintaktik poetik xususiyatlari

Badiiy nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda sintaktik usuldan keng foydalaniladi. Ekspressivlikning namoyon bo'lish shakllarini teran tadqiq qilgan tilshunos Adham Abdullayev «sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus qo'llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq» kabi uslubi

figuralar «fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishi»ga xizmat qilishini ta'kidlaydi.¹ «Badiiy tekstning lingvistik tahlili» kitobi mualliflari sintaktik figuralarning quyidagi asosiy ko'rinishlari mavjudligini bayon qilishadi: «anafora, epifora, takror, antiteza, gradatsiya, ellipsis, alliteratsiya, ritorik so'roq kabilar»² Bu uslubiy vositalar mavzuga aloqador bo'lgan deyarli barcha adabiyotlarda uchraydi. Biz quyida sintaktik okkazionalizm, ritorik so'roq gap, antiteza, o'xshatish, sifatlash kabilarga to'xtalamiz.

3.1. Sirojiddin Sayyid she'rlaridagi okkazionalizmlarning lingvopoetik xususiyatlari

«Badiiy ijodda shoir va yozuvchilar doimo yangi so'z yasashga intilib keldilar. Bu krmuniyatdir, chunki so'zning tasviriy imkoniyatidan mumkin qadar keng foydalanishga intilish, kutilmagan, g'ayriodatiy, yangi obrazlar yaratish ehtiyoji, ifodani yangicha tarzda berish zarurati ijodkorlarni ana shunday yo'l tutishga undaydi». Ana shu ehtiyoj tufayli adiblarning dunyoqarashigagina xos bo'lgan, faqat ularning asarlaridagina uchraydigan, umumxalq tilida ommalashib ketmagan yasalmalar, favqulodda o'zgacha birliklar - okkazionalizmlar vujudga keladi.

Okkazionalizmlar rus tilshunosligida ancha chuqur o'rganilgan. Bu borada A.Gornfeld, A.G.Likov, N.N.Feldman, Ye.K.Chirkova, Ye.A.Zemskaya, I.O.Aleksandrova, V.V.Lopatin, I.S.Uluxanovlarning tadqiqotlarini alohida ta'kidlamoq joizdir.

O'zbek tilshunosligida okkazionalizmlar S.Karimov, X.Doniyorov, B.Yo'ldoshev, H.Abdurahmonov, R.Normurodov, S.Toshaliyeva, O.To'xtasinova-larning maqola va ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

«Tilshunoslik terminlarining izoxdi lug'ati»da okkazionalizmga shunday ta'rif berilgan: «Okkazionalizm. Mahsuldor bo'lmagan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o'zida qo'llangan so'z, individual-uslubiy neologizm».¹

«O'zbek tili leksikologiyasi»da esa neologizmlar tilda yangi paydo bo'lgan so'zlar ekanligi, yangi so'z umumtil doirasida yoki individual nutq doirasida bo'lishi mumkinligi ko'rsatib o'tiladi hamda individual nutq doirasidagi so'zlar adiblar, shaxslar tomonidan favqulodda yaratilgan so'zlar sifatida qaralishi, bunday so'zlar tilshunoslikda okkazionalizmlar deb yuritilishi ta'kidlanadi.² «Okkazional so'zlarni yangi paydo bo'lgan so'zlar sifatida qabul

¹ Абдуллаев А. Ўша асар, 58-бет.

² Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили.-Тошкент, «Ўқитувчи», 1990, 34-бет.

¹ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изохли луғати. - Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002. - 74 б.

² Ўзбектили лексикологияси. - Т.: Фан,1981. - 155-156 б

qilish mumkin. Shuning uchun ham o'zbek tilshunosligida badiiy ijod bilan bog'liq bo'lgan neologizmlarni okkazionalizmlar, individual va stilistik neologizmlar deb atashlar, shuningdek, okkazional so'zlarni individual-stilistik neologizmlar sifatida qabul qilishlar ham o'z ifodasiga ega. Okkazional so'zlarning tilda yangi paydo bo'lishi uning individual xususiyati bilan bog'liq desak, xato bo'lmaydi».³ Okkazionalizmlarning o'ziga xos jihatlari quyidagi ta'rifda ham o'z ifodasini topgan: "Okkazional so'zlar o'zida sinxron-diaxron qorishqlik, anormallik, nutq uslubi yoki muloqotning ayni shu daqiqasida yuz beradigan nominaqiya, so'z yasaliş xususiyatlarini o'zida mujassam etgan ekspressiv nutqiy birlikdir".⁴

Demak, okkazionalizmlarni faqat yangilik bo'yog'iga ega ekanligiga ko'ra neologizmlarning bir turi sifatida qarash mumkin. Ularning o'xshash va umumiy tomoni shundaki, okkazionalizmlar ham neologizmlar singari yangilik bo'yog'iga ega bo'ladi. Neologizmlar - hozircha umumiste'mol lug'atiga kirib ulgurmagan, qo'llanishi vaqtincha sust, ammo umumnutqning faol birligiga aylanishi mumkin bo'lgan yangi so'zlar. Okkazionalizmlar esa til tizimi va qonuniyatlari uchun noma'lum, favqulodda so'zlar bo'lib, ularning g'ayriodatiyligi, tasodifiyligi, *bir marta ko'llanishga mo'ljallanganligi*, til qonuniyatlariga nomuvofiqligi bilan imkoniyatdor so'zlarning ziddi hisoblanadi. «O'zbek tili leksikologiyasi»da okkazionalizmlar individual nutq neologizmlari sifatida ko'rsatilib, ular umumxalq tili faktiga aylanmasligi ko'rsatiladi.¹ Bu ta'riflar okkazionalizm va neologizm tushunchalariga anchagina aniqlik kiritadi.

Ko'rinadiki, okkazionalizmlarga kanday ta'rif berilmasin, bu ta'riflarda ular individual-uslubiy xususiyatga egaligiga alohida urg'u beriladi, ularning asosiy vazifasi stilistik funkqiya o'tashdan iboratligi qayd qilinadi. Chunki okkazionalizmlar ijod jarayonida muayyan shaxs tomonidan ayni shu vaziyat, mazmun ehtiyojidan kelib chiqqan holda yasaladi yoki qo'llanadi. Har bir ijodkorning o'ziga xos uslubi bo'lgani singari, ana shu uslub zahirida yaratilgan yangi so'zlar, yangi qo'llanishlar ham bo'ladi.

«Okkazional» termini so'zlarning, til birliklarining nutq jarayonida odatdagiga mos bo'lmagan holda qo'llanishiga nisbatan ham ishlatilgan. Shunga asoslanib, hatto so'zlarning boshqa so'z vazifasida (noodatiy) qo'llanishiga nisbatan ham okkazional termini ishlatilgan holatni ko'ramiz.

³ Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари.: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. - Т., 2000. - 20 б.

⁴ Тўхтасинова О.Ю. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари.: Филол. фанлари номзоди...дис. автореф. -Т., 2007. - 12 б.

¹ Ўзбек тили лексикологияси. - Т.: Фаи, 1981. - 156 б.

Demak, okkazionalizm noodatiy yasalish, noodatiy qo‘llanishdir. U nutq jarayonining o‘zida yuz beradi. Aslida ot-kesimlarning go‘yo tuslangan holda kesim vazifasiga xoslashishi ham okkazional qo‘llash natijasidir.

Uning leksik, frazeologik, sintaktik okkazionalizmlar singari turlari mavjud bo‘lib, mazkur bobda faqat sintaktik okkazionalizmlar va ularning badiiy matnning poetik aktuallashuvdagi roli haqida fikr yuritamiz.

Adabiyot ilmda **oksyumoron** deb ataluvchi hodisada ham mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga mazmunan zid bo‘lgan ikki tushunchani ifodalovchi so‘zlar o‘zaro qo‘shib qo‘llaniladi. Oksyumoron grekcha so‘z bo‘lib, «*o‘tkir lekin bema’ni*» degan ma’noni bildiradi. Ular ayrim adabiyotlarda «okkazional birikmalar», «noodatiy birikmalar» yoki «g‘ayriodatiy birikmalar»¹ deb ham yuritiladi. Bunday birikmalar individualligi, yangiligi, ko‘nikilmaganligi va ohorliligi bilan tasvir ifodaliligini ta’minlaydi. *Sokin hayqiriq, otashin muz, yong‘inli daryo, so‘qir lomakon, qora nur, yalang‘och shuur, yaxlagan sarob, oppoq tun, so‘zsiz suhbat* kabi birikmalar oksyumoronga misol bo‘ladi. Bunday g‘ayriodatiy birikmalar antitezaning bir ko‘rinishi sifatida talqin qilinadi. Ma’lumki, istalgan ikki so‘zni biriktirish bilan oksyumoron yuzaga kelavermaydi. Bunday birikmalar yozuvchining badiiy tafakkur mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun g‘ayriodatiy birikmalarni mantiqsizlik bilan bog‘lash mumkin emas. Ularga estetik hodisa sifatida yondashish zarur. O‘zaro bog‘lanmaydigan so‘zlarni bog‘layotgan kuch nimada? Ularning birikib badiiy effekt berishi uchun qanday ifoda imkoniyati mavjud? Yozuvchini bunday «maromsiz» birikmalar yaratishga nima majbur qildi? kabi savollar bilan mazkur hodisa mohiyatiga kirib borish mumkin.

Shakl va mazmun o‘rtasidagi nomuvofiqlik tilning barcha ma’noli birliklariga xos universal xodisadir. O‘zbek tilida sodda gaplarda va ergash gapli qo‘shma gaplarda shakl va mazmun asimmetriyasining ba’zi masalalari prof. N.Mahmudov tomonidan o‘rganildi. Uning ta’kidlashicha, tilda semantik- sintaktik asimmetriyaning yuzaga kelishi tildagi doimiy ikki tendensiyaning – ortiqchalik va til vositalarining ekonomiyasi tendensiyalarining u yoki bu formadagi namoyon bo‘lishidan iborat. Birinchi tendensiyaga ko‘ra bir sintaktik sodda gapda ifodalanishi lozim bo‘lgan muayyan bir propozitsiya sintaktik qo‘shma gapda ifodalanishi mumkin, natijada semantik sodda, ammo sintaktik qo‘shma bo‘lgan gaplar shakllanadi.² Masalan,

Ko‘ringkim, biz qandoq raftorga keldik,

¹ Бу ҳақда қаранг: Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. -Тошкент, «Фан», 1981, 38-47-бет.

² Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик –синтактик асимметрия. Тошкент: Ўқитувчи, 1984. 12-б.

Dil bilan oxiri guftorga keldik.

O'tib dunyoning bor attorlaridan,

Oxir Farididdin Attorga keldik.(S.Sayyid)

Mazkur parchaning birinchi gapida “*bizning qandoq raftorga kelganimizni ko‘ring*” degan sodda fikr sintaktik qo‘shma gap (to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap) shaklida berilgan. Bunda sodda gapning kesimi alohida ta’kidli ifodaga ega bo‘lganligi uchun, shaklan ergash gapli qo‘shma gapning bosh gapi(ko‘ringkim,...) sifatida berilgan. Bu orqali muallif tinglovchinig diqqat e’tiborini yanada tortish vositasi sifatida ham foydalangan.

Tildagi ortiqchalik prinsipining qarama qarshi qutbi til vositalarining ekonomiyasi prinsipi bo‘lib, sodda gaplardagi semantik sintaktik asimmetriya, asosan, ana shu prinsip asosida yuzaga keladi.¹ Murakkab mazmunning murakkab formada emas, balki sodda formada ifodalanishi til vositalari ekonomiyasi tendensiyasining tilda yaqqol namoyon bo‘lish formalaridan biridir. Uni quyidagi misol orqali ko‘rishimiz mumkin:

So‘qmoqlardan, oq, za‘faron dalalardan

Men za‘faron so‘zlar terib katta bo‘ldim. (S.Sayyid.Ustodi avval.)

Mazkur ravishdosh oborot bilan murakkablashgan sodda gapda ikki propozitsiya ifodalangan bo‘lib, ulardan biri (*katta bo‘ldim*) asosiy, ikkinchisi esa (*za‘faron so‘zlar terib*) ikkinchi darajali predikatsiyani tashkil etadi. Bu o‘rinda ikkinchi darajali predikatdagi harakatning asosiy predikatdagi harakatdan oldin bajarilganlik ma’nosidan iborat qo‘shimcha semantik otenka ifodalangan. Natijada murakkab mazmun sodda shaklda namoyon bo‘lgan, ya’ni sodda gapning shakli va mazmuni o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelgan.

Bir shabnamga zor bo‘lib turgan payting

Yomg‘ir bo‘lib qirlaringga yog‘aymi?

Bisotimda bor yo‘g‘i bir qop baytim,

To‘rt kilocha qofiyam bor, og‘ayni. (S.Sayyid. Bozor iqtisodiyoti va she‘r)

Mazkur parchada “bir qop bayt”, “to‘rt kilocha qofiya” singari birikmalar qo‘llanilgan bo‘lib, ularning shakli va mazmuni o‘rtasida ham nomuvofiqlik kuzatiladi. Odatda, so‘z birikmasi modeli ham gap modeli singari ikki tomonlama xususiyatga, ya’ni sintaktik shakl hamda umumalashgan sintaktik ma’noga ega. Sintaktik shakl nuqtai nazaridan mazkur birikuvlarning hokim elementi ot so‘z turkumi bilan ifodalangan bo‘lib, uning “*bir qop*”, “*to‘rt kilo*” singari numerativlar bilan shakliy sintagmatik munosabati me’yor hisoblanadi. Ammo

¹ Махмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик –синтактик асимметрия. Тошкент: Ўқитувчи, 1984. 13-б.

“bayt”, “qofiya” soʻzlarining semantik strukturasi oʻlchov semasi boʻlmaganligi uchun yuqoridagi numerativlar bilan semantik munosabati okkazionallikni hosil qiladi.

Qaygʻu men boʻlmasam qaygʻu chekadi,

Anduh tunlar menga achchiq choy damlar.

Men begʻam yashasam boʻlardi, lekin

Mensiz yasholmaydi hech qachon gʻamlar (S.Sayyid)

Mazkur parchada tagiga chizilgan gapda ham shakl va mazmun nomuvofiqligi kuzatiladi. “Tunlar” (ot)ning “choy damlar”(feʼl) bilan shakliy sintagmatik munosabati grammatik nuqtai nazaridan toʻgʻri, ammo semantik jihatdan okkazionallikni hosil qilgan.

Dilu dil ichra tola nur taraldi,

Tegib mijgonlarga ul nur taraldi.

Keyin mahfiy bitim tuzdi nigohlar,

Valekin bu taxayyul deb qaraldi.

Yoʻlingdan ketmagil sargashta, ey jon,

Shu nozik onda, balki, ishq yaraldi. (S.Sayyid. Dilu dil ichra...)

Mazkur sheʼrda “mahfiy bitim tuzdi nigohlar” jumlasini koʻchimga asoslangan betakror ifoda va chinakam tasviriy vositadir. Tamoman kutilmagan, behad ohorli bu ifoda jiddiy badiiy estetik salmoqqa ega.

1. Men oʻzbekning bir shtatsiz shoiriman,

Sheʼr aytmoqqa goh noʻnoq, goh mohirman.

2. Yigitlikmi va yo umr xazonida

Tinchi boʻlsin har kimning ham makonida.

Bu hayotning gʻala gʻovur doʻkonida

Baxtga navbat turganlarning oxiriman.

3. Shoir yashar dard yutib, yulduz qusib,

Hosil olmoq uchun bir bet, yarim bet

misralaridagi “shtatsiz shoir”, “baxtga navbat turmoq”, “yulduz qusmoq”, “bir bet, yarim bet hosil olmoq” birikuvlari; Oʻz koʻnglumni qogʻozlarga oʻramay, shamollarga hadya etgum molimni misralaridagi “koʻnglini qogʻozga oʻramoq”, “molini shamolga hadya etmoq” birikuvlari; Yuraversang, yuraversang, yuraversang bir umr, Taqdiringni gʻamlaringning iti bilan qopmasdan misralaridagi “gʻamlaringning iti”, “gʻamlaringning iti bilan qopmoq” singari birikuvlarida ham yuqoridagi holatni kuzatish mumkin.

Tahlillarimizdan koʻrinib turibdiki, semantik-sintaktik asimmetriya hodisasi sintaktik birliklarning barchasida amal qiluvchi universal hodisa boʻlib, uning koʻrinishlari Sirojiddin

Sayyid asarlarida ko‘p uchraydi. Bu esa muallif she‘rlaridagi ta’sirchanlikni oshirish, misralardagi o‘ziga xoslikni ta’minlash vositasi bo‘lib xizmat qilgan.

Demak, okkazionalizmlar yozuvchining tilda hali maxsus va aniq ifodasi bo‘lmagan turli ma’no nozikliklarini va o‘ziga xos ekspressivlikni ifodalash uchun, adabiy tilda uchramaydigan lug‘aviy birliklar yaratish kabi maqsadlar bilan paydo bo‘lar ekan, Sirojiddin Sayyid she‘rlaridagi okkazionalizmlar ham ifodalilikning yangi vositasi sifatida boshqa til vositalari bilan birgalikda asarning badiiy mazmunini ochishga xizmat qiladi.

3.2. Sirojiddin Sayyid she‘rlaridagi ritorik so‘roq gaplarning lingvopoetik xususiyatlari

Sintaktik sathda, xususan, sodda gap sathida darak, s‘yroq, buyruq gaplarning shakli va mazmuni ŷrtasida ham nomuvofiqlik kuzatiladi. . S‘yroq gaplar umumlashtiruvchi s‘yroq ma’nosi bilan bir butunlikni hosil qilsa ham, lekin bu s‘yroq ma’nosi real holda turli variantlar – semalar orqali namoyon b‘yladi. S‘yroq gaplar sof s‘yroq semasini ifodalaganda, uning shakli va mazmuni ŷrtasida ziddiyat kuzatilmaydi, ya’ni bunday gaplarning shakli va mazmuni ŷrtasida mutanosiblik b‘yladi. Boshqa holatlarda nomutanosiblik kuzatiladi. Shakl va mazmun nomutanosib b‘ylgan s‘yroq gaplarning tarkibida s‘yroq vositalari ishtirok etib, faqat shakl tomondangina s‘yroq gap sanaladi. Masalan,

London nima menga? Chikago nima?

Nimadir Parijning oqbilaklari?

Mening yuragimga yaqinroq erur

Jayhun sohillari, o‘t, baliqlari. (Sirodiddin Sayyid. Xorazmga boraman).

Ushbu parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘roq gaplarning shakli va mazmuni o‘rtasida nomuvofiqlik mavjud.”London nima menga?” ,“Chikago nima?”, “Nimadir Parijning oqbilaklari?” jumllalarida s‘yzlovchining niyati ŷziga noma’lum b‘ylgan voqea-hodisa haqida s‘yrash emas, balki ŷziga ma’lum voqea-hodisa haqida axborot berishdir (*Menga London hech narsa emas* singari). Bunday gaplar shakl tomonidan tarkibida s‘yroq vositalari ishtirok etish belgisiga k‘yra s‘yroq gaplar bilan paradigmatic munosabatga kirishsa, mazmun jihatdan ma’lum voqea, belgi-xususiyat haqida axborot berish belgisiga k‘yra darak gaplar bilan paradigmatic munosabatga kirishadi va ularning shakli va mazmuni o‘rtasida ko‘pincha ikki belgi asosida ziddiyat mavjud bo‘ladi: Birinchidan, ifoda maqsadiga ko‘ra (so‘roq shakli orqali darak ma’nosining ifodalanishi); ikkinchidan, tasdiq-inkor belgisiga ko‘ra ziddiyat (tasdiq shakli orqali inkor ifodalanishi, yoki aksincha, inkor shakli orqali tasdiq ifodalanishi). Natijada ritorik so‘roq gaplar ham badiiy matnning emotsional-ekspressivligini ta’minlovchi

uslubiy vositalarga aylanadi. Ko‘pincha ritorik so‘roq gaplar tarkibida nahotki, axir kabi ta’kidni kuchaytiruvchi so‘zlar keladi. Ular nutqqa ko‘tarinki ruh bag‘ishlaydi va tasdiqning kuchli emotsiya bilan ta’kidlanishi uchun xizmat qiladi. Bunday gap shakllari qahramonning hayratlanishini, quvonchini, ajablanishini, shubha va gumonsirashini, g‘azab va nafratini ifodalashda juda qo‘l keladi. Ichki va tashqi nutqda, monologik va dialogik nutqlarda keng qo‘llaniladi. Ardoqli shoir Sirjiddin Sayyidning «So‘roq» deb atalgan quyidagi she’ri ritorik so‘roqning go‘zal namunasi bo‘la oladi:

Hurriyat ta’mini hech totganmiding?

Shuncha yillar qand so‘rib yotganmiding?

Qodiriy, Cho‘lponu Fitrat ko‘zlarin

Dil aro bir bora uyg‘otganmiding?

Lolazor o‘ldi alarning qonlari

Sen bu yanglig‘ lolazor o‘tganmiding?

Yuzlaringda na alam bordir, na yosh,

Yoki sen ham qo‘shilib sotganmiding?

Shunchalar achchiq bu shirin hurriyat,

Sen aning ta’mini hech totganmiding?

Mazkur she’rning “Qodiriy, Cho‘lponu Fitrat ko‘zlarin Dil aro bir bora uyg‘otganmiding?”, “Shunchalar achchiq bu hurriyat, Sen aning ta’mini hech totganmiding?” misralaridagi gaplarning mazmuniy tuzilishidan “Qodiriy, Cho‘lponu Fitrat ko‘zlarin dil aro bir bora uyg‘otmagansan”, “Shunchalar achchiq bu hurriyatning ta’mini hech totmagansan” axboroti anglashiladi. Bu ob’ektiv mazmun presuppozitsiya orqali oldindan ma’lum bo‘lgan haqiqatdir. Shuning uchun so‘zlovchi o‘zi va tinglovchiga oldindan ma’lum bo‘lgan haqiqatni qat’iy, kuchli tarzda bayon etish maqsadida so‘roq darak gap shaklidan foydalangan. Demak, so‘zlovchining maqsadi so‘roqqa javob talab qilish emas, balki umumga voqelikni qat’iy, kuchli ifodalashdan iborat.

Ufqlar, qirlaru osmongacha qor,

Toshkentdan Termizu Surxongacha qor.

Ona, bul sog‘inchni qandoq yozayin?

O‘rtamizda cheksiz oppoq varaq bor.

Mazkur misolda ham so‘roq darak gap ishtirok etgan bo‘lib, “qandoq” so‘roq olmoshining ishtirokiga ko‘ra ushbu gap shaklan so‘roq gap, ammo so‘zlovchining kommunikativ niyati so‘rash emas, “sog‘inchni yoza olmayotgani” haqidagi darak habar mazmunini yetkazish bo‘lganligi uchun mazmunan darak gapdir. Ushbu ritorik so‘roq gap matn tarkibida emotsionallikni yuzaga chiqruvchi vosita sifatida ishtirok etgan.

Yog‘och so‘ri, bu dunyoda nima ko‘rding?

Nima ko‘rdim bu dunyoda, yog‘och so‘ri?

Kechalar sen yolg‘izgina o‘ylar surding,

Mening esa ado bo‘ldi qalbim qo‘ri. (Yog‘och so‘ri)

Nima? So‘roq olmoshi bilan shakllangan so‘roq tasdiq gaplarning ichki tuzilishidan darak inkor presuppozitsiyasi anglashiladi. “*Yog‘och so‘ri, bu dunyoda nima ko‘rding?*” gapining ichki tuzilishidan “Hech narsa ko‘rmading” yashirin darak inkor axboroti ifodalangan. “*Yog‘och so‘ri, bu dunyoda nima ko‘rding?*” gapining predikati bo‘lishli shaklda bo‘lsa da, uning mazmuniy tuzilishida darak inkor presuppozitsiyasi anglashilgani uchun yashirin darak inkor axboroti o‘z ifodasini topgan. Anglashiladiki, mazkur gapning shakli va mazmuni o‘rtasidagi nomuvofiqlik tasdiq inkor, so‘roq darak, sodda murakkablik belgilariga ko‘ra yuzaga kelgan. Ayni shunday shakliy mazmuniy nomuvofiqlikni quyidagi parchada ham kuzatish mumkin.

O‘tmasa gar ezgulikka xizmat aylab,

Kimga, nega keragi bor jon va tanning?

Sizday bag‘ri butun, oqil zotlar sabab

Bag‘ri butun bo‘lgay doim bul Vatanning (Azim chinor)

Ko‘rinib turibdiki, so‘roq shakli orqali darak inkor, darak habar mazmunining berilishi badiiy matnda aktuallikni ta’minlash vositalari bo‘lib xizmat qilar ekan.

3.3. Shoirning o‘xshatishdan foydalanishi

Badiiy asarlardagi bunday holatlarni tahlil qilish orqali adibning murakkab konstruksiyali farqlash sillogizmini, qiyoslash, chog‘ishtirish mantig‘ini tasavvur etishimiz mumkin bo‘ladi.

Adabiy tilning tasviriy vositasi bo‘lgan o‘xshatishda leksik birliklar bilan ifodalangan ikki narsa, hodisa yoki tushuncha o‘zining ma’lum bir belgi, xususiyati asosida bir — biriga obrazli chog‘ishtiriladi. O‘xshatish to‘g‘ridan — to‘g‘ri o‘xshash tomonni ko‘rsatish bilan yoki — dek

(—day), *o‘xshash, xuddi, go‘yo, misli, singari, yanglig‘, simon* kabi so‘zlar yordami bilan tuziladi. Masalan:

*Munisam, ovozing bunchalar mayin,
Gulga qo‘nayotgan **kapalak kabi**.
Bu dunyo, sen sekin so‘zlagan sayin
Tovlanar ko‘zimga **kamalak kabi**.*

*Umrim osmoniga **oy uzatganday**,
Tun menga tillarang **choy uzatganday**.
Borliq ham **nurlanib yuzayotganday**,
Sen chi, **so‘zlayotgan suvmalak kabi**.*

*Tilning asalidan qorilgan rozmi?
Lablar shakkaridan yaralgan nozmi?
Yana qaydin topgum bunday ovozni
Olamni aylansam charxpalak kabi?*

*Garchi nelarnidir so‘rayotirsan,
Asli ipak ipga o‘rayotirsan,
Go‘yoki tilimlab berayotirsan
Orzuni eng shirin handalak kabi.(S.Sayyid. Ovoz)*

O‘xshatish ko‘chimning sodda turiga kiradi va ikki predmet yoki voqea — hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisning belgisini, mohiyatini to‘laroq, konkretroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatadi. Shuning uchun ham biror predmetning ma’lum bir belgisini boshqa bir predmetga solishtirishga o‘xshatish deyiladi. Chunonchi, qoshi qalam/ yuzi oyday kabi iboralar sodda o‘xshatishlarga misol bo‘la oladi. Bundan tashqari, murakkab o‘xshatishlar ham mavjud bo‘lib, unda bir predmetning bir necha xususiyati boshqa predmetlarga solishtiriladi. To‘liq o‘xshatishda to‘rt element:

- 1) o‘xshagan narsa;
- 2) o‘xshatilgan narsa;
- 3) o‘xshash sifat;

4) o‘xshatish qo‘shimchasi (— dek, kabi) mavjud bo‘ladi. Qisqa o‘xshatishda esa bu to‘rt element bo‘lmay, faqat o‘xshagan va o‘xshatilgan iarsa bo‘ladi, O‘xshatishlar narsa va hodisalarni ifodalagan leksik birliklar o‘zining to‘g‘ri ma’nosi bilan solishtiriladi. Leksik birliklar bilan qiyoslanayotgan narsa va hodisalarning belgilari muxim rol o‘ynaydi.

Masalan: *Munisam, ovozing bunchalar mayin,*

*Gulga qo‘nayotgan **kapalak kabi**.*

Bu parchada *yorning ovozi* va *kapalak* bir — biriga mayinlik belgisi orqali chog‘ishtirilgan. Tashqi tomondan olib qaraganda ovoz bilan kapalak o‘rtasida o‘xshashlik yo‘k. Lekin yorning ovozi bilan kapalakning gulga qo‘nishi o‘rtasida o‘xshashlik bor.

Demak, o‘xshatishda uch asos e’tiborga olinadi: birinchidan, o‘xshatilayotgan predmet — *OVOZ* o‘xshatiluvchi ob’ekt, ikkinchi o‘xshayotgan predmet— *kapalak*— o‘xshovchi obraz, uchinchi, o‘xshatilayotgan va o‘xshayotgan narsa, hodisalarning o‘xshashlik belgisi — *mayin*— o‘xshatma belgi.

O‘xshatishning o‘xshatiluvchi ob’ekti bilan o‘xshovchi obrazi uning asosiy sharti hisoblanadi.

O‘xshatishlar yuzaga kelish asoslariga, badiiy adabiyot tilida qo‘llanishiga, ma’nolariga, komponentlarning sostaviga ko‘ra bir necha turga bo‘linadi. O‘xshatishlar, avvalo, ikki katta guruhga bo‘linadi:

1. Konkret o‘xshatishlar sezgilarga asoslanadi. Bu o‘xshatishlar *ko‘rish, eshitish, hid bilish, maza — tam* va *teri— tuyg‘u, sezgi* organlarining biri asosida yuzaga keladi. Masalan:

Garchi nelarnidir so‘rayotirsan,

Asli ipak ipga o‘rayotirsan,

Go‘yoki tilimlab berayotirsan

*Orzuni **eng shirin handalak kabi**.*(S.Sayyid. Ovoz)

2. Abstrakt o‘xshatishlar biror kishining *nazarida, xayolida* ro‘y beradi. Ko‘pincha *nazarida, aylanmoq, eslatmoq, go‘yo* so‘zlari bilan ifodalanadi.

Yoshimga xos bo‘lmagan sezgi kechdi ko‘nglimdan.

Giloslaring tuxkildi chelak chiqib qo‘lingdan.

Go‘yo silkindi devor, sen ham seskanding noxos.

Lablaringda qonadi katta, qop qora gilos.

(S.Sayyid. Bolalik. Qo‘shni qiz Gulpari)

Badiiy adabiyot tilida o‘xshatishlar qo‘llanish jihatdan ikki: *1.an‘anaviy 2.individual* o‘xshatishlarga bo‘linadi.

An'anaviy o'xshatishlar jonli — so'zlashuv nutqidagi o'xshatishlar bo'lib, ular yozuvchi tomonidan o'zgartirilmagani holda badiiy asar tiliga olib kiriladi.

Masalan *chayonday zahar, xo'rozday urushqoq, qo'yday yuvosh* kabi.

Individual o'xshatishlarda emotsional — ekspressivlik, obrazlilik yaqqol gavdalanib turadi. Bunday o'xshatishlar ko'pincha avtor nutqi orqali beriladi.

O'xshatishlar mazmuniga qarab *inkor, kinoya, satirik va chog'ishtiruvli* bo'ladi.

Inkor o'xshatishlarda o'xshatiluvchi ob'ektga o'xshovchi obrazni qarama-qarshi qo'yish yo'li bilan qiyoslanadi. Bularda *emas, yo'k* so'zlari qatnashadi.

Kinoyali o'xshatishlarda oldin o'xshatiluvchi ob'ektning xususiyatlari tasvirlanadi, keyin esa o'xshovchi obraz beriladi. Bu obrazda mubolag'a ustun turadi:

Masalan:

Bu azob eng sodiq do'stimdir mening,

Yillar yitsa hamki aslo yitmaydi.

Qari, sadoqatli kuchuk singari

Men bilan birgadir, hargiz ketmaydi (S.Sayyid)

Satirik o'xshatishlarda biror salbiy obrazning portreti, hulk -atvori hajvga olinadi:

Masalan: *Mensiz yasholmaydi mana bu qalam,*

Mensiz yasholmaydi bu oppoq daftar.

Har oqshom va yo tong kelsam "pirr"etib,

Oldimga qo'nadi misoli kaptar. (S.Sayyid)

Chog'ishtiruv o'xshatishlarda o'xshatiluvchi ob'ekt bilan o'xshovchi obrazlar birikma yoki gap holida kelib bir -biriga chog'ishtiriladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida —day// —dek, — simon, — ona, —namo,—omuz, —ga, — larcha,—chasiga, —dan, affikslari o'xshatish komponentlarining o'xshovchi obrazini ifodalagan so'zlarga qo'shib o'xshatish ma'nosini anglatadi.

Hozirgi uzbek tilida o'xshatish munosabatini ifodalovchi yordamchi so'zlarga *kabi, singari, yanglig', xuddi, go'yo, bamisoli, misli, mislsiz, misoli, baayni* kabi ko'makchi va yuklamalarni ko'rsatish mumkin.

Kabi so'zi. Grammatikaga oid adabiyotlarda kabi singari yordamchi so'zlarning o'xshatish qiyoslash ma'nolarini anglatishi qayd qilingan.

O'xshatish munosabatlarida *kabi* yordamchi so'zi o'xshatishning asosiy komponentlaridan biri — o'xshovchi obraz dan keyin qo'llanadi.

Bu vosita bilan yuzaga chiqqdn o'xshatishlarning o'xshovchi obrazini ifodalagan so'zlar egalik, ko'plik affikslerini, fe'lining sifatdosh, harakat nomi formalarini olib keladi.

Singari yordamchi so'zi turli so'zlarga qo'shib o'xshatish hosil qaladi, u asasan nasrda qo'llaniladi.

Go'yo so'zi qator adabiyotlarda bog'lovchi, o'xshatish chog'ishtirish bog'lovchisi bo'lib keladi. Go'yo amalda bog'lovchilik funksiyasini bajara olmaydi. M.Asqarovaning fikricha, go'yo yordamchisi sodda gaplar tarkibida yuklamaga yaqinroq, qo'shma gaplar tarkibida bog'lovchi — yuklama vazifasida keladi¹.

Go'yo yordamchi so'zi boshqa vositalar bilan kelsa, o'xshatishni kuchaytirishga, bo'rtirishga yordam bersa, bir o'zi qo'llanganda, o'xshatish munosabatlarini yuzaga chiqarib, xuddi, bamisoli so'zlari bilan sinonim bo'la oladi.

Xuddi yordamchi so'zi o'xshatish ma'nosini ifodalagan asosiy va yordamchi vosita bo'lib kela oladi. Ular ko'pincha yordamchi vazifasini bajarib, o'xshatishni bo'rtirishga, konkretlashtirishga xizmat qiladi, ayrim holatlarda o'zlari ham o'xshatish munosabatini ifodalay oladi.

Xuddi so'zi yordamchi vosita sifatida frazeologik iboralardan oldin kelib ham o'xshatish munosabatini ifodalay oladi.

Xuddi so'zi o'xshatish munosabatida yordamchi vosita sifatida kelganida *go'yo*, *bamisoli* so'zlariga sinonim bo'lishi mumkin. Bundan tashqari aynan o'zginasi so'zlari va — *day* —*dek* affiksiga sinonim bo'la oladi.

Bamisoli so'zi. Bu vosita doimo o'xshovchi obraz kelgan so'zdan oldin keladi va ayrim xolatlarda o'xshatish ifodalovchi asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Bamisoli elementining bir o'zi bilan yuzaga kelgan o'xshatishlarda bamisoli so'zi — *day*, // —*dek*, kabi, *singari*, *o'xshamok*, *eslatmoq*, *xuddi* o'zi vositalariga sinonim bo'la oladi.

Mislsiz so'zi. Bu vosita ham go'yo, xuddi elementlaridek o'xshovchi obrazdan oldin kelib, o'xshatish ma'nosini kuchaytirishga, bo'rttirishga va o'xshovchi obrazni ifodalagan so'zlarni ajratib ko'rsatishga yordam beradi.

O'zbek tilida leksik vositalar bilan ifodalangan o'xshatishlar xilma —xildir. Bulardan tus, shakl, holatida, *nimayu nima* degan so'z bilan *teng*, *bilan barobar*, *bo'lmoq* kabi so'zlar o'xshashlikni ifodalaydi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili bir qancha o'xshatishlar kelishik qo'shimchalari va leksik vositalar yordamida ifodalanadi. Masalan, o'xshamoq so'zi jo'nalish kelishigi qo'shimchasi bilan o'zi, o'zginasi so'zlari esa qaratqich kelishigi qo'shimchasi bilan keladi.

¹ Asqarova M. Hozirgi ўzbek tilida эргашии формалари ва эргаш гаплар. — Т.; 1966, —Б.

3.4. Sifatlashlar badiiy tasvir vositasi sifatida

Sifatlash (epitet) — badiiy tasvir vositalaridan biri, predmet voqea - hodisa, tushuncha va kishilarning belgi hislatlarini aniqlovchi, izohlovchi soʻz. Sifatlovchi soʻz aniqlanuvchi soʻz bilan birikib, xislat belgilarini koʻchirib, muayyan hodisaning u yoki bu tomonlarini aniqlaydi.

Sifatlash (epitet) kishi, narsa yoki voqeaning biror belgisini, sifatini aniq ravshan koʻrsatib beruvchi badiiy tasvir vositasidir.

Sifatlash (epitet) grekchadan olingan boʻlib, ilova degan tushunchani bildiradi. Uning gapdagi asosiy vazifasi badiiy aniqlovchilik predmetga poetik aniqlik, rang—baranglilik berishdan ibratdir. Sifatlash predmetning belgisini oddiygina koʻrsatish bilan chegaralanmaydi, uni yanada konkretlashtiradi, baholaydi va unga emotsional-ekspressiv ottenka kiritadi.

Sifatlash, asosan, sifatlovchi+sifatlanmish yohud sifatlanmish — sifatlovchi birikmasi holida boʻlishligi bilan aniqlovchiga teng keladi.

Badiiy adabiyotda istiora asarning gʻoyaviy mazmunini chuqur ochishga yordam beradigan vositalardan biri hisoblanadi. Istiora tasvirining aniq va goʻzal boʻlishini taʼminlaydi. Sifatlash istiora va kinoya prinsiplari asosida ham hosil boʻlishi mumkin. Shu xususiyati bilan bu ikki hodisa bir - biriga oʻxshaydi. Sifatlashda, koʻpincha, sifatdan foydalanilsa ham turli soʻz turkumlari sifatlash boʻlib kela oladi. Masalan:

Anor yuzlaringga ne boʻldi, anor?

Senga kim bunchalar tikildi, charos?

Nega bir yonogʻing oldir, shaftoli?

Gilos lablaringdan kim oʻpdi, gilos?(S.Sayyid. Bogʻda)

Keltirilgan bu misoldagi “gilos lab”, “anor yuz” birikmalari istioradir. Bunda yuqoridagi ajratib koʻrsatilgan birikmalarda lab va yuzning oʻziga xos yakka belgi, xususiyatlari konkretlashtirilgan. Bu bilan koʻchma maʼno bilan birgalikda birikmalarda emotsional - ekspressivlik ifodalanyapti.

Keng dala, bepoyon choʻl, yam yashil bogʻ singari bir xilda koʻplab ishlatiladigan sifatlashlar ham borki, ular doimiy sifatlash deyiladi.

Biz yuqorida sifatlash doimo ikki soʻzdan, yaʼni sifatlovchi - sifatlanmish yoki sifatlanmish -sifatlovchidan iborat boʻladi dedik. Sifatlovchi bilan sifatlanmish sifatlovchili birikmani tashkil qiladi.

Sifatlovchi quyidagi soʻzlar bilan ifodalanadi:

1. sifat bilan. Bunda aniqlovchi predmetning rang — tusi, maza — taʼmi, shakl hajmi, xarakteri psixik holat kabi belgilarni bildiradi. Masalan:

Qaro zulfing qaro qildi kunimni tunlarimdan ham,

Kuyuk ko'ngil isi kelgay tunim ham kunlarimdan ham. (S.Sayyid)

Bu misollardagi qora sifatlovchisi sifatlanmishning rangi, tusini ; kuyuk sifatlovchisi esa holatni aniqlab kelyapti.

2. Sifatdosh bilan. Bunda sifatlovchi predmetning xarakatga munosabat nukta nazaridan fikrini ifodalaydi.

Qir ustida yonboshlagan bobom chaylasi,

Bu dunyoda kimlarningdir orzu havasi.

Dimog'imda yulduz isi, shabnamlar isi,

Momom ekib ketgan kashnich, rayhonim, Vatan.

Quloq solsam shivirlagay hatto toshlaring,

Oyu quyosh, kamalaklar ko'zu qoshlaring,

Beshigimni tebratgandir qaldirg'ochlaring,

Oyu quyosh ko'rpa solgan ayvonim, Vatan.

Yuqoridagi misollardagi «yonboshlagan», «ekib ketgan», «ko'rpa solgan» sifatdoshlari bilan ifodalangan aniqlovchilar predmetning belgisini anglatib kelgan.

3. Son bilan. Bu holda aniqlovchi predmetning miqdor va tartib jihatdan belgisini bildiradi.

Ikki ming tilagim aytsam gar hozir,

Yana ikki mingi qolur qalbimda.

Ikki ming shodliklar Sizga muntazir,

Ikki ming shukuh bor yana dardimda.

Go'yo bo'stonimdan bir zum ichinda

Ikki ming kapalak uchdiyu ketdi.

Ikki ming yulduz bor bir tun ichinda,

Yana ikki mingi o'chdiyu ketdi. (S. Sayyid. 2000 yil she'ri)

Yuqoridagi misollarda «ikki ming» sifatlovchilari predmetning belgisini miqdor sonlari orqali ifodalayapti. Yoki quyidagi parchalarda ham ana shunday holatni kuzatishimiz mumkin:

Hurriyat epkinlari bog'ingdadir, tomingdadir,

Yulduzing, qutlug' hiloling subhu oqshomingdadir,

Fayz ila fazlu farog'at tinchu oromingdadir,

Ey Vatan, jonu dilim, jonu dilim nomingdadir,

Yetti osmon jilvasi bir nurli ayyomingdadir. (S.Sayyid. Jonu dilim)

Evrilsa gar necha falak, necha davru zamon,

Shoir shoir bo'lib qolar, cho'pon bo'lolmagay.

*Matoh qilsalar yuz Sirojiddin Sayid she'ridan,
Ustoz Erkin Vohidga bir chopon bo'lomagay. (S.Sayyid. Izhor)*

4. Olmosh bilan. Bunda olmoshlarning ma'no turlariga ko'ra, aniqlovchilar predmetlarni konkretlashtirib, makon, payt va boshqa jihatlardan aniqlab keladi.

*Ochiq qoldi zoru hayron eshigimiz,
Sahardan tuz totmay yotdi kuchugimiz
Shu kuchukning yalog'iyu yaloqdagi
Sarqitchalik bo'lmaganim alam qilar. (S.Sayyid. Armon)*

*Kiprigimda gardlaring, xoru xasim birlan ketay,
Tog'laringdan esgan ul tonggi nasim birlan ketay,
Bir ism birlan kelibman, shul ism bilan ketay,
Ey Vatan, jonu dilim, jonu dilim nomingdadir,
Yetti osmon jilvasi bir nurli ayyomingdadir. (S.Sayyid Jonu dilim)*

Yuqoridagi misollarda *shu*, *ul*, *shul* ko'rsatish olmoshlari bilan ifodalangan aniqlovchi aniqlanmishning so'zlovchiga nisabatan masofa va vaqt jihatdan yaqinligini ifodalashga xizmat qilgan.

5. Sifat vazifasidagi ot bilan.

*Harir harir ko'ylaklarda yuzib keldilar,
Laganlarga yuragimni suzib keldilar.
Nozik nozik o'ltirishib, so'ng hammalari
Mening kabob yuragimni butkul yedilar. (S.Sayyid. Go'zallar ziyofati)*

Sifatlash yolg'iz o'zi kelmasdan, ma'lum so'z birikmasi tarkibida keladi. Bunday birikma motaforik sifatlash deyiladi. Masalan: oltin vodi, zumrad bahor, kumush qish kabi.

Metafora natijasida hosil bo'luvchi ko'chma ma'no ba'zi hollarda ekspressiv — stilistik bo'yoqqa ega bo'lsa, ayrim hollarda bunday bo'yoqqa ega bo'lmaydi.

Ekspressiv - stilistik bo'yoqli metaforalar natijasida hosil bo'lgan ko'chma ma'nolar tushuncha, ya'ni ob'ektni ifoda etish bilan unga nisbat sub'ektning munosabatini ham ifoda etadi.

Demak, yuqoridagi tahlillarimizdan ko'rinib turibdiki, ot, sifat, sifatdosh, ravish, olmosh, taqlidlar sifatlovchi vazifasida kelib, ko'chma ma'no ifodalaydi va emotsional ekspressivlikka ega bo'ladi.

Xullas, shoir tabiat va jamiyatdagi biror hodisa yoki holatni ifodalashda, qahrmonning ichki dunyosi va ma'naviy takomilini yoritishda so'zni g'oyat tabiiylik bilan qo'llaydiki, kitobxon

go‘yo o‘quvchi emas, tasvirlanayotgan voqealar ishtirokchisidek , lirik qahramondek his qiladi o‘zini.

Bob bo‘yicha xulosalar

1. Sintaktik vositalar badiiy matnda integrativ munosabatlarning yuzaga kelishida faol ishtirok etishi bilan birga ayni munosabatlar fonida xilma xil badiiy ma‘no mazmunlarni ham ifodalay oladi. Badiiy matnda poetik aktuallashadigan sintaktik vositalarning asosiylari quyidagilardan iborat: sintaktik parallelizm, emotsional gap, ritorik so‘roq gap, inversiya, atov gaplar(segmentatsiya), gradatsiya, oksyumoron (g‘ayriodatiy birikmalar), antiteza(sintaktik konstuksiyalarda), o‘xshatish, sifatlash va boshqalar.

2. Ma‘lumki, o‘xshatishlar she‘riy nutqda kuchli ekspressivlik hosil qiladi. S.Sayyid she‘rlaridagi o‘xshatish qurilmalarni shakllantiruvchi grammatik vositalar shoirning badiiy niyati bilan uyg‘unlashib, badiiyatni ta‘minlashda aktuallik kasb etgan.

3. Okkazionalizmlar yozuvchining tilda hali maxsus va aniq ifodasi bo‘lmagan turli ma‘no nozikliklarini va o‘ziga xos ekspressivlikni ifodalash uchun, adabiy tilda uchramaydigan lug‘aviy birliklar yaratish kabi maqsadlar bilan paydo bo‘lar ekan, Sirojiddin Sayyid she‘rlaridagi okkazionalizmlar ham ifodalilikning yangi vositasi sifatida boshqa til vositalari bilan birgalikda asarning badiiy mazmunini ochishga xizmat qilgan.

4. Shoir she‘rlarida ritorik so‘roqlar juda ko‘p uchraydi. Ritorik so‘roq gaplar badiiy matnda integrativ munosabatlarning yuzaga kelishida faol ishtirok etuvchi va xilma xil badiiy ma‘no mazmunlarni ifodalay oluvchi vositalardan biridir.

UMUMIY XULOSALAR

1. Badiiy asar g'oyasining ilmiy talqini ko'p jihatdan asar tilini tahlil etishga bog'liq. Adabiyotimizda iz qoldirgan har bir ijodkor asarlarining tilini tahlil etish, birinchidan, adib mahoratini o'rganish, shu bilan birga, adabiy tilimiz rivojiga uning asarlari tilining qay darajada ta'sir ko'rsatayotganligini belgilash ehtiyojidan kelib chiqadi.

2. Sirojiddin Sayyid she'rlardagi ta'sirchanlikni oshirish, misralarning o'ziga xosligini ta'minlash maqsadida antitezadan, shu bilan birga, o'zbek tili sinonimik imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalana olgan. Sinonimik imkoniyatlarni qo'llash natijasida o'rinsiz takrorga yo'l qo'yilmagan.

3. Sirojiddin Sayyid, boshqa ijodkorlar kabi, she'rlarida xalq maqollari va iboralardan unumli foydalangan. Maqollar va iboralar she'riyat yoki uslubiyat talabi bilan ijodiy tarzda qo'llangan. Maqollar va iboralarning leksik yoki grammatik jihatdan o'zgartirilganligi she'rda o'ynoqilik, ta'sirchanlik kabi xususiyatlarni ta'minlagan.

4. Shoir tasviriy ma'noga va emotsional bo'yoqqa ega bo'lgan iboralardan unumli foydalangan. Shu bilan birga, ba'zi maqol va iboralarning ma'nosi boyitilib, ayrim iboralarning emotsional-ekspressiv bo'yoqlari kuchaytirilgan. Xalq maqollari va iboralari ta'sirida shoir tomonidan «kashf etilgan» aforizmlar, hikmatli so'zlar ko'p uchraydi. Bunday barqaror birliklar she'rlarning ta'sirchanligi, ohangdorligi hamda badiiy va estetik jihatdan salmoqdorligining oshishini ta'minlagan.

5. Til jamiyat taraqqiyotining ko'zgusi ekan, ma'lum ma'noda Sirojiddin Sayyid she'rlari ham hozirgi tilimiz imkoniyatlari, uning nozik ma'no qirralarini namoyish eta oldi. Bu imkoniyatlar turli vositalar, jumladan, so'zni mohirona qo'llash, yangi birliklar hosil qilish, xalq tilidan ijodiy foydalanish va boshqalar orqali uning she'rlarida o'z aksini topdi. Xususan, shoir she'rlaridagi okkazionalizmlar o'ziga xos va o'ziga mos tarzda qo'llandiki, bu birikmalar o'zining g'ayriodatiyligidan tashqari, obrazlilikni yaqqol ta'minlaganligi tufayli ham o'quvchi tasavvurini boyitishga, she'r mazmunini chuqurroq anglashiga xizmat qildi.

6. Sirojiddin Sayyid she'rlaridagi okkazionalizmlar, asosan, so'z birikmasi yoki gap shaklida bo'lib, ular orqali tilimizning ichki imkoniyatlari kengligi aks

etgan. Bunday birikuvlar semantik sintaktik muvofiqlik//
nomuvofiqlik oppozitsiyasi asosida yuzaga kelgan.

7. Yangi yasalmalar ommalashib ketmagan taqdirda ham, uning shu matnda ta'siri bo'lishi shubhasiz. Negaki, u hissiyotni yangicha tarzda ifodalaydi, yangi ma'no aks ettiradi. Bunday so'z va birikmalar yangi semantik ottenkalarning paydo bo'lishiga asos yaratib, matnda ma'lum bir stilistik vazifani bajarishga xizmat qilgan.

8. Sirojiddin Sayyid she'rlarini lingvopoetik jihatdan tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, shoir she'rlarida lisoniy vositalardan mohirona foydalangan va o'ziga xos, original uslubni yarata olgan. Bu, xususan, uning she'rlari tilida yaqqol ko'zga tashlanadi, shu sababli Sirojiddin Sayyidni o'zbek adabiy tilini, jumladan, poetik nutqni boyitishda muayyan iz qoldirib kelayotgan shoir sifatida baholash mumkin, degan xulosaga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т.: Шарқ, 1998.
2. Каримов И.А. Биз танлаган йўл-демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. // Ўзбекистон Республикаси олий мажлиси XII сессиясидаги маърузаси. “Мулқдор” газетаси. –Т.; 2003 й. 25-апрел, Б. 4.
3. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. Тошкент, 1996. Том 4.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари: маънавий қадриятлар ва миллий мулкни англашнинг тикланиши. –Т.: Ўзбекистон, 1999.
5. Кримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Тошкент:Маънавият, 2008.

I. Илмий-назарий адабиётлар

1. Абдурахмонов Ғ., Мамажонов Н. Ўзбек тили ва адабиёти.–Тошкент, «Ўзбекистон», 1985.
2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши.–Тошкент, «Фан», 1983, 88 б.
3. Абдулаттоев М. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар.–Тошкент, НДА., 1998.
4. Абдурахмонов Ш. Ўзбек бадиий нутқида кулги қўзғатувчи лисоний воситалар.– Тошкент, НДА., 1997. 24 б.
5. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси.–Тошкент, «Фан», 1981.
6. Ашурбоев С. Қутбнинг “Хусрав ва Ширин” достони ва ўзбек адабий тили.– Тошкент, “Ўқитувчи”, 1997.
7. Бобожонов Ф. Ўзбек жаҳид драмаларининг лисоний хусусиятлари (Бехбудий ва Авлоний драмалари асосида).–Самарқанд, НДА., 2002. 23 б.
8. Бобоев Т. Ўзбек шеър тузилиши асосларини ўрганиш.– Тошкент, 1991.
9. Бобоев Т. Аруз вазнларини ўрганиш. – Тошкент, 1991.
10. Бобоев Т., Бобоева З. Бадиий санъатлар. –Тошкент, ТДПУ, 2001.
11. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент, «Ўқитувчи», 2002.
12. Бобоева С. Ҳамид Олимжон поэзиясининг лексик хусусиятлари.–Тошкент, «Фан», 1989.
13. Бозоров О. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив (актив) тузилиши. –Фарғона, НДА., 2004.

14. Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи. –Самарқанд, НДА., 2004.
15. Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати (бадий маҳорат ва тил ҳақида мулоҳазалар). –Тошкент, «Фан», 1962.
16. Дониёрова Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадий-услубий ўзига хослиги. – Тошкент, НДА, 2000. 23 б.
17. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларида ўхшатиш.–Тошкент, «Фан», 2005.
18. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари.– Тошкент, «Фан», 2005, 162 б.
19. Жалолова Л. Абдулла Қодирий асарларидаги жонлантиришнинг лингвопоэтик таҳлили // «ЎТА», 2000, 4-сон, 33-35-бетлар.
20. Жамолхонов Ҳ. Йўлдашев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили (Маърузалар матни).–Тошкент, ТДПУ., 2000.
21. Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодаланишининг усул ҳамда воситалари. – Тошкент, НДА., 2001.
22. Исаева Ш. Адабий жараён: Ўзбек тарихий асарларида характерлар руҳияти.– Тошкент, ТДПУ., 2004.
23. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. –Самарқанд, 1999.
24. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. –Тошкент, «Фан», 2007, 123 б.
25. Йўлдошев М. Фарқлаш – бадиий тасвир воситаси сифатида. // «ЎТА», 2005, №3, 123-125-бетлар.
26. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. –Тошкент, «Маънавият», 2002.
27. Келдиёрова Г. Эркин Воҳидов шеъриятида антитеза //«ЎТА», 2000, 1-сон. 51-54-бетлар.
28. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. –Тошкент, «Ўқитувчи», 1992.
29. Қиличов Э. Матннинг лингвистик таҳлили. –Бухоро, «Бухоро университети», 2000.
30. Қўнғиров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент, «Ўқитувчи», 1992.
31. Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини.–Тошкент, НДА., 2000. 23 б.
32. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил.–Тошкент, «Ўқитувчи», 1995.
33. Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти. –Тошкент, НДА., 1998.

34. Мамажонов А., Маҳмудов У. Услубий воситалар. – Фарғона, 1996.
35. Мамажонов А. Текст лингвистикаси.-Тошкент,ТДПИ., 1999.
36. Мамазияев О. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва грация.-Фарғона, НДА., 2004.
37. Маҳмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир //«ЎТА»., 1987, №4. 34-36-бетлар.
38. Маҳмудов Н. Ҳар бир сўз берсин садо //«ЎТА»., 1987, 13 феврал, №7.
39. Маҳмудов Н. Ойбек шеърлятидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси //«ЎТА»., 1985, №6. 48-51-бетлар.
40. Маҳмудов Н. Рост ва расо сўзлар. // «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси, 1993, 15.Х. №41-42 (3248)
41. Мелиев С. Контекста сўз динамикаси //«ЎТА»., 1983, №4. 50-54-бетлар.
42. Мирзаев И.К. Лексические и морфологические средства формирования семантики рифмы. –Т.: «Фан», 1990.
43. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Тошкент, “Ўқитувчи”, 1993.
44. Нормуродов Р. Шукур Холмирзаевнинг метафорадан фойдаланиш маҳорати //«ЎТА»., 2002, №6. 68-69-бетлар.
45. Омонтурдиев А. Ўзбек нутқининг эвфемик асослари. –Тошкент, А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000, 128 б.
46. Омонтурдиев Ж., Омонтурдиев А. Сўз қўллаш санъати. –Термиз: «Жайхун», 1994, 60 б.
47. Раҳимов З. «Кўҳна дунё» романи поэтикаси. –Фарғона, 2005.
48. Рихсиева Г. Нисбат шакллариининг лингвопоэтик тадқиқига доир. //«ЎТА»., 2004, №2, 73-75-б.
49. Саидхонов М. Диалогик нутқнинг коммуникатив таҳлили. //«ЎТА»., 2004, №2, 70-73-б.
50. Саидов Й. Фитрат бадий асарлари лексикаси. – Тошкент, НДА, 2001. 24 б.
51. Самадов Қ. Ўзбек тили услубияти (бадий услуб).–Тошкент, «Ўқитувчи», 1991. – 56 б.
52. Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари. – Тошкент, НДА., 2005.
53. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. 128 б.
54. Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. – Тошкент, “Фан”, 1978, 151 б.
55. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари.-Тошкент, «Ўқитувчи», 1996.

56. Содикова Ш. Аффиксоидлар ёрдамида ҳурмат маъносининг ифодаланиши. //«ЎТА», 2004, №2, 77-80-б.
57. Солижонов Й. Диалог ва унинг бадий асардаги ўрни // «ЎТА», 2002, №4. 7-11-бетлар.
58. Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синонимлари. –Тошкент, ДД., 1999.
59. Шодиев Н. Рухият рассоми. –Тошкент, «Фан».
60. Шомаксудов А., Расулов И., Солижонов Й., Мўминов С. Бадий асарларда исмнинг айрим функциялари//«ЎТА», 1984, №2. 44-49-бетлар.
61. Шамсиддинов Х, Қўнғуров Р, Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент, «Ўқитувчи», 1983, 246 б.
62. Шукуров Р. Синтактик параллелизмнинг услубий вазифалари. //«ЎТА», 2004, №2, 73-75-бетлар.
63. Шукуров Р. Параллел синтактик бутунликлар. –Фарғона, НДА., 2004.
64. Турниёзов Н. Матн лингвистикаси. Маърузалар матни. –Самарқанд, 2004, 58-бет.
65. Умиркулов Б.Поэтик нутқ лексикаси.–Тошкент, «Фан», 1990.
66. Умрзокова Н. Усмон Носирнинг сўз қўллаш маҳорати //«ЎТА», 2002, №4. 41-43-бетлар.
67. Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент, «Ўқитувчи», 1990. 219 б.
68. Ҳакимова. М. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари. –Фарғона, НДА., 2004.
69. Хўжамқулов У. Миртемир шеъриятида сўзнинг эстетик таъсир имкониятлари. //«ЎТА», 2004, №2. 60-61-б.
70. Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатини биласизми?–Тошкент, «Шарқ», 1999.
71. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.–Тошкент, «ЎМЭ», 2002.
72. Худойбердиев Ж. Сўз – ўзга маъни ўзгадур.–Тошкент, 1997.
73. Чориева З. «Ўткан кунлар»даги мактубларда тасвирий воситалар. //«ЎТА», 2005, №5. 84-85-бетлар

II. Бадий адабиётлар

1. Сирожиддин Саййид. Ватан абадий. -Тошкент: Шарқ, 2001.
2. Сирожиддин Саййид. Юз оҳ, Заҳириддин Муҳаммад Бобур...

–Тошкент: Ўзбекистон, 2011.

III.Интернет материаллари:

1. Welles Rene. Edebiyat teorisi. -İzmir, Akademi kitabevi, 1993.
2. <http://www.ege.edebiyat.org>. R. Filizok. Metin tipleri.
3. <http://www.edunet.tr>. Anna Mari Albisson.